

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta‘lim yo‘nalishi

4- “V” kurs talabasi

G‘AYBULLAYEVA PARVINA SAMANDAR QIZI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “GULISTON MATYOQUBOVA IJODIDA TARIXIY
SHAXSLAR OBRAZINING BADIY TALQINI”**

Talaba:

G‘aybullayeva Parvina

Ilmiy rahbar:

filol.f.d. (PhD) F.Sapayeva

Kafedra mudiri:

filol.f.n., dots. S.Matyakupov

*O‘zbek tili va o‘zbek adabiyoti kafedralari qo‘shma yig‘ilishining 2019- yil
10- maydagi 4- bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.*

NUKUS – 2019

Davlat attestatsiya komissiyasi

QARORI:

5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4- «V» kurs talabasi G‘aybullayeva Parvinaning “Guliston Matyoqubova ijodida tarixiy shaxslar obrazining badiiy talqini” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga «___» ball («___%») qo‘yilsin.

«___» _____ 2019- yil

DAK kotibasi:

Y.Madrimova

Reja:

KIRISH

I BOB. GULISTON MATYOQUBOVA IZLANISHLARIDA INSON MA'NAVIY OLAMINING O'ZIGA XOS TAKOMILI

- 1.1. Shoira she'rlarining badiiyati va poetik obrazlar rang-barangligi
- 1.2. Guliston Matyoqubova ijodi Ustoz zamondoshlar nigohida.....

II BOB. SHOIRA LIRIKASIDA MILLIYLIK, TARIXIY SHAXSLAR, TASVIR RUHIYATI TABDILI

- 2.1. Xalqona ohang va ko'ngil istaklari badiiy talqini
- 2.2. Turkum dostonlarida milliy kolorit va tarixiy shaxslar tajassumi

III BOB. TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI

- 3.1. Mavzuning ta'lim jarayoniga tadbiiq qilish bo'yicha tavsiyalar
- 3.2. Dars ishlanma

UMUMIY XULOSALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Mavzu dolzarbligi: Mustaqillik o‘zbek xalqiga o‘zligini anglash hamda anglatish, tarixi, madaniyati, xalqona urf-odatlarini va qadriyatlarini qayta tiklash, milliy o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoitlar yaratdi. Har tomonlama barkamol yangi avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish davlatimizning bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biridir. “Agar mendan sizni nima qiynaydi? deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman”, – deydi, Ózbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev. Pirovardida, o‘z nutqida yana shuni alohida qayd qiladilarki: “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”¹. Hammamiz yaxshi tushunamizki, adabiyotda tarixiy haqiqatni tiklash bilan birga, xalqimiz adiblarimizdan bugungi kunimiz haqida, zamonamiz qahramonlari haqida yangi-yangi asarlar kutayotgani tabiiydir.

Keyingi yillarda ana shunday ruh bilan yo‘g‘rilgan bir qancha she’riy asarlar paydo bo‘layotganini mamnuniyat bilan ta’kidlash joiz. Binobarin, jamiyat ma’naviy hayoti sog‘lomlashuvi bevosita badiiy adabiyot zimmasiga tushadi. Ayni paytda, “biron bir jamiyat ma’naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi”¹. Shu ma’noda, adabiyot har bir davr ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy muammolarini ko‘tarib chiqishi va ularga javob izlashiga ko‘ra tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uning ijtimoiy–ma’rifiy xususiyati, ayniqsa, tahlil va talqin vositasida baholash mezonlariga aniqlik kiritishda yaqqol ko‘rinadi. Vaholanki, istiqlol sharoitida

¹ Sh.M. Mirziyoyev. ”Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 104.b.

qadriyaviy mezonlarni davr ruhidan qayta – haqqoniy baholash jarayon tusini olganligini hisobga olsak, masala mohiyati yanada teranlashadi. Tabiiyki, mavjud holatda real hayot va dunyoqarashni sogʻlomlashtirish yetakchi mavqega erishadi.

Adabiyotshunoslik, avvalo ijodkor adabiy mahoratini tizim shaklida ochib berishga zamin hozirlaydi. Unda masala mohiyatini batafsil ochib berish hamda tahlil ma'rifatini teranlashtirish imkoniyatlari bir necha barobar ortadi. Binobarin, mushohada tushuncha tabiatini baholash barobarida ijodkor alohidaligini ham belgilovchi mezondir. Unda materiya tizimda tutgan oʻrni va oʻzaro munosabati tutashadi. Plyuralistik yondashuv va poetik individuallik omuxtaligi aynan muammo zalvorini umumlashtirishga zamin hozirlaydi. Joriy sifat koʻrsatkichi ham ijtimoiy-falsafiy, ham estetik-ma'naviy jihatlar toʻldiruvchisiga evriladi. Shuningdek, ijodkor milliy adabiyotdagi yoki jahon adabiyotidagi mavqeyini belgilash, shoir oʻziga xos isteʼdodi, mahorati va yashirin qirralarini bilib olish uchun tizimli oʻrganish muhim sanaladi. Tadqiqot orqali adabiyot asl maqsadi ochiladi.

XXI asr jahon va yurtimiz tarixi sahifalariga misli koʻrilmagan taraqqiyotlar, yutuqlar, kashfiyotlar, shuning bilan birgalikda, ommaviy qirgʻinbarotlar, ocharchiliklar, yangi turdagi vabo kabi ofatlar bilan muhrlandi. Shunday jarayonni estetik baholash maqsadga muvofiqdir. Albatta, jarayon tarixchilar tomonidan tadqiq qilinganidek, badiiy adabiyotda ham yangicha talqin paydo boʻla boshladi.

Biz ishda Guliston Matyoqubova lirikasida voqelik yoritilish jarayoni, sheʼrlarining badiiyati va poetik obrazlar rang-barangligi, milliy kolorit, tarixiy shaxslar tajassumi, va alxusus shoira ijodi haqida Ustoz zamondoshlar fikri-shamoyili, ijodda namoyon nazmiy mantiq imkoniyatlari haqida soʻz yuritamiz.

Isteʼdodli adabiyotshunos olim O.Sharafiddinov taʼkidlaganidek: “Bugungi adabiyot, badiiy tafakkurimizda erishishimiz kerak boʻlgan eng muhim jihat – voqelikka, dunyoga munosabatda yangi aspektlarga chiqish,

dunyoni yangicha, chuqurroq, yuksakroq idrok qilishga o'tish. Binobarin, dunyoning, jamiyatning, insonning mohoyatini kengroq ochishga harakat qilishimiz kerak"¹. Darhaqiqat, badiiy adabiyotdagi estetik o'zgarishlar jamiyatni, ma'lum bir davrni murakkab qirralarini yangicha tamoyillar asosida talqin qilar ekan, shaxs konsepsiyasiga jiddiy e'tibor qarata boshladi. Estetik tamoyillar o'zgarishi, shaxs ruhiyati ichki ziddiyatlarini, ijtimoiy muhit o'rtasidagi vujudga kelayotgan qarama-qarshiliklarni davr nuqtayi nazaridan talqin etish shoira ijodida ham o'ziga xos ifodasini topgan. Ana shu nuqtayi nazardan nazariy fikrlarni umumlashtirish mavzu dolzarbligini belgilaydi.

Aslida o'zbek adabiyotshunosligida Guliston Matyoqubova nazmi maxsus tadqiqot obyekti tarzida o'rganilmagan. Analogik talqin masala mohiyatini to'liq tasavvur qilishga yordam beradi. Mana shu xususiyatlar o'zaro munosabati tadqiq etilayotgan mavzuning dolzarbligi hamda nazariy qiymatini amalda ko'rsatadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Adabiyot nazariyasi va estetikasi joriy bosqichida XXI asr o'zbek she'riyati taraqqiyot tamoyillari, poetik idrok o'ziga xosligi hamda adabiy talqin masalalari turfa davrlar kesimida muayyan darajada yoritilgan. Jumladan, o'zbek adabiyotida Zulfiya, Omon Matjon, Baxtiyor Nazarov, Norboy Xudayberganov, Yusuf Berdiyevlar o'rgangan bolsa, qoraqalpo'gistonlik adabiyotshunos olimlar va adiblar Qobil Maqsetov, T'olapbergen Qayipbergenov, Ibrayim Yusupov, Mengliboy B'oronov, Karimboy Quramboyev, Feruza Sapayevalar, xususan, turkmanistonlik adabiyotshunos Axmed Mammedov ilmiy tabdilida poeziya u yoki bu muammolari tahlilga tortilgan¹.

¹ **Zulfiya.** Gulistonning bo'stoni. "Qaytmoq uchun ketmoqdaman" – Nukus:"Qaraqalpaqstan", 2007. –B. 232. **Omon Matjon.** Saodatlik iste'dodga ehtirom. "Qaytmoq uchun ketmoqdaman" – Nukus:"Qaraqalpaqstan", 2007. – B. 240. **Nazarov B.** Guliston haqida so'z. "Qaytmoq uchun ketmoqdaman" – Nukus:"Qaraqalpaqstan", 2007. –B. 245. **Norboy Xudoyberganov.** Ko'ngil quyoshi va dardlari. "Qaytmoq uchun ketmoqdaman" – Nukus:"Qaraqalpaqstan", 2007. –B. 248. **Qobil Maqsetov.** Ulug' jirov haqida poema. "Qaytmoq uchun ketmoqdaman" – Nukus:"Qaraqalpaqstan", 2007. –B. 250. **Ibroym Yusupov.** Ayol yuragining nozik tuyg'ulari. "Qaytmoq uchun ketmoqdaman" – Nukus:"Qaraqalpaqstan", 2007. –B. 252., **M.Bo'ronov.** She'riyat sayqali – so'z. "Qaytmoq uchun ketmoqdaman" – Nukus:"Qaraqalpaqstan", 2007. –B. 259. **Karimboy Quramboyev, Gulandom Quramboyeva** "Gul bor Guliston ichinda". T: "O'zbekiston", 2016. **Karimboy Quramboyev**

Mavjud holat lirika tabiatini yaxlit tushunishga zamin hozirlaydi. Biroq adabiy tizimda Guliston Matyoqubova ijodiy qiyofasi hali maxsus o'rganilmagan. Shunday ekan, shoira badiiy izlanishlarida badiiy mantiq o'ziga xosligi takomili hamda ijodkor poetik idrokiga daxldor tasvir ruhiyati ayrim qirralarini, qolaversa, she'riyatida milliy kolorit, tarixiy shaxslar siymosi tajassumi, ijodda namoyon poetik mantiq imkoniyatlari xususida tadqiqot olib borish, nazariy jihatdan baholash hayotiy ehtiyoj sanaladi.

Tadqiqot maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishidan ko'zlangan asosiy maqsad badiiy mantiq umumiy mohiyati va lirik ifodadagi o'ziga xosligini, ijodkor poetik idrokiga daxldor tasvir ruhiyati ayrim qirralarini, qolaversa, she'riyatida milliy kolorit, tarixiy shaxslar siymosi tajassumi, ijodda namoyon poetik mantiq imkoniyatlarini Guliston Matyoqubova she'riyati misolida nazariy umumlashtirishdan iborat.

Maqsadni amalga oshirish quyidagi **vazifalarni** hal qilishga bog'liq:

- Guliston Matyoqubova lirikasida g'oya va badiiy mantiq vazifadoshligi umumiy mohiyati hamda o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;
- ijodkor poetik idrokiga daxldor tasvir ruhiyati ayrim qirralari maqomini belgilash;
- timsoliy-badiiy yaxlitlik va ifoda madaniyati zichligini kuzatish;
- she'riyatida milliy kolorit, tarixiy shaxslar siymosi tajassumi talqinini aks ettirish;
- she'r tili hamda ijod ruhiyati aro shoira estetik tamoyillarini tavsiflash;

Dovonlardan dovonlarga (Guliston Matyoqubova ijodi haqida). "Qaytmoq uchun ketmoqdaman" – Nukus:"Qaraqalpaqstan", 2007. –B. 264. Yusuf Berdiyev. Muhabbat yurtiga guldasta. "Qaytmoq uchun ketmoqdaman" – Nukus:"Qaraqalpaqstan", 2007. –B. 266;

Feruz Sapayeva. G.Matyoqubova dostonlarida liro-epik talqin. Илим ҳам жэмийет журнали. 2009.№ 1-2. – Б.111-113., "Бадий исьтедод жилолари", Илим ҳам жэмийет журнали. 2008. № 1-2.–Б.58-60., Публицистик тасвир, лирик талқин уйғунлиги (*Г.Матёқубованинг "Жайхун ёқасида ўсган бойтерак" адабий-бадий публицистик асари мисолида*) ЎзФАККБ Ахборотномаси («Хабарши») журнали. 2009. № 1. –Б. 92-95., Табиатни поэтик талқин қилишдаги ўзига хослик (*Г.Матёқубованинг ижодида бир назар*), Тилшунослик ва адабиётшунослик масалалари. Илмий тўплам. Нукус. 2009. – Б. 47-51.kabi ilmiy maqolalari; **Ahmed Mammedov.**Gulistonning she'r chamani. "Qaytmoq uchun ketmoqdaman" – Nukus:"Qaraqalpaqstan", 2007. –B. 267.

- Guliston Matyoqubova ijodida kuzatiladigan uslubiy izlanishlar badiiy saviyasini ko'rsatib berish;

- adabiy talqin falsafiy salmog'ini nazariy jihatdan umumlashtirish.

Tadqiqot obyekti: Milliy istiqlol davri o'zbek va qoraqalpoq lirikasida o'ziga xos izlanishlar olib borayotgan shoira Guliston Matyoqubovaning "Ota uyi", "Qaytmoq uchun ketmoqdaman", "Izlaganlarim", "Men sen uchun yashayapman" va "Sevib qolsin" kabi to'plamlari tadqiqot obyekti vazifasini bajaradi.

Tadqiqot predmeti: Guliston Matyoqubova she'riyatida badiiy mantiq tadriji, tuyg'u va ong nisbatini o'rganish, xalqona ohang va ko'ngil istaklari badiiy talqini, turkum dostonlarida milliy kolorit va tarixiy shaxslar tajassumi bitiruv malakaviy ish predmetini tashkil etadi.

Ishning metodologik asosi. Ish nazariy asosini belgilashda milliy istiqlol g'oyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligi haqidagi bayonotlari, Aristotel, Gegel, V.G.Belinskiy, A.F.Losev, M.Baxtinlar badiiy ijod poetikasi xususida metodologik ahamiyatga molik mulohazalariga tayanildi. Shuningdek, Zulfiya, Omon Matjon, Baxtiyor Nazarov, Norboy Xudayberganov, Qobil Maqsetov, Tólapbergen Qayipbergenov, Ibrayim Yusupov, Yusuf Berdiyev, Mengliboy Bóronov, Karimboy Quramboyev, Feruza Sapayeva, xususan, turkmanistonlik adabiyotshunos Axmed Mammedov kabi olimlarining badiiy adabiyot poetik mohiyati, badiiy so'z estetikasi masalalariga bag'ishlangan asarlaridagi nazariy qarashlar tadqiqot uchun ilmiy-metodologik asos vazifasini o'taydi.

Bitiruv malakaviy ishda o'rni-o'rni bilan badiiy tahlil, qiyosiy-tipologik, struktural, germeneytik, aksiologik va ontologik talqin usullariga murojaat qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. XX asr o'zbek adabiyotshunosligida shoira mahorati, she'riyatda badiiy mantiq poetikasi ba'zi qirralari talqini turli davr hamda yo'nalishlar aspektida muayyan darajada o'rganilgan bo'lsa-da,

Guliston Matyoqubova lirikasi misolida maxsus tahlillanmagan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, avvalo, muammo dastlabki bor istiqlol davrida shakllanayotgan yangicha badiiy-estetik qarashlar asosida maxsus obyekt sifatida o'rganilayotganligida qabarib ko'rinadi.

Bitiruv-malakaviy ishda badiiy mantiq poetikasi, turkum dostonlarida milliy kolorit va tarixiy shaxslar tajassumi quyidagi qirralari yoritiladi:

- Guliston Matyoqubova izlanishlarida inson ma'naviy olamining o'ziga xos takomili belgilandi;

- Shoira she'rlarining badiiyati va poetik obrazlar rang-barangligi tavsif qilindi;

- G.Matyoqubova ijodining zamondoshlari nigohiga nazar solindi;

- shoira lirikasida milliylik, tarixiy shaxslar, tasvir ruhiyati tabdili asoslanildi;

- xalqona ohang va kóngil istaklari badiiy talqini o'rganildi;

- ijodiy dunyoqarash takomilida g'oya va mantiq badiiy maqomi belgilandi;

- adabiy muhokamada tushuncha hamda g'oya o'zaro munosabati ba'zi xususiyatlari tavsiflandi;

- badiiy mantiq mezonlari poetik idrok intizomida tutgan vazifaviy o'rni va uslubiy ahamiyatiga e'tibor qaratildi;

- falsafiy mushohada mantiqiy taraqqiyotida ifoda mustaqilligi, tahlil muqarrarligi, tasavvur shartliligi va poetik shakl umumlashtirildi;

- G.Matyoqubova adabiy mahorati bilan bog'liq jihatlarga nazar tashlandi;

- poetik tabdil tadrijida tasvir ruhiyati tabiati dalolatlandi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari hozirgi o'zbek she'riyati umumiy manzarasini belgilash, tushuncha va mantiq munosabati yaxlitligi xususiy holatini tasavvur etishga yordam beradi. Undan XXI asr o'zbek she'riyati halqasida G.Matyoqubova badiiy izlanishlari maqomini tayin etishda, shoira nazmiga bag'ishlangan risola, kitob va adabiy

portret yaratish hamda to'ldirishda, oily ta'lim tizimida maxsus kurs va seminarlar, konferensiyalar o'tkazishda foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi: Bitiruv malakaviy ish kirish, uchta asosiy bob, oltita fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat .

I BOB. GULISTON MATYOQUBOVA IZLANISHLARIDA INSON MA'NAVIY OLAMINING O'ZIGA XOS TAKOMILI

1.1. Shoira she'rlarining badiiyati va poetik obrazlar rang-barangligi

Guliston Matyaqubova iste'dodli shoira hamda yozuvchi. U 1948-yili Qoraqalpog'istonning Tórtkól shahrida tug'ilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tugatgan. Bólajak shoira dastlab tuman gazetasida, Yoshlar ittifoqi ishlarida ishlaydi, radio eshittirish qómitalarida xizmat qiladi, 1981-yildan boshlab Tórtkól tumani gazetasining mas'ul kotibi, sóngra bosh muharriri lavozimlarida faoliyat olib bordi. U 1985-yildan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Jóqorg'i Kengesining Qómita boshlig'i, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jóqorg'i Kengesi deputati, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati bóldi. Ayni paytda Qoraqalpog'iston Respublikasi Berdaq nomidagi Davlat mukofotining laureati (1993), O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senat a'zosi, Qoraqalpog'iston xalq shoirasi (2002), 2017-yilda "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi. Uning "Baxt keltirgan bahor" (1982), "Hayajonning yetti ranggi" (1983), "Nurli kunlar" (1984), "Oydin ostona" (1985), "Prekrasnoe chuvstvo" (1987), "Sevib qolsin" (1991), "Aytgil menga Tórtkól haqida" (1993), "Men sen uchun yashayapman" (1995), "Intizorlik" (1995), "Jayxun ja'gasında osgen bayterek" (1996), "Daryoga botayotgan quyosh" (1998), "Izlaganlarim" (2000), "Oyboldoq" (2001), "Muhabbat yurti" (2003), "Qalb zuraati" (2004), "Qaytmoq uchun ketmoqdaman" (2008), "Ota uyim" (2014) kabi 20 dan ortiq kitoblari nashrdan chiqqan...

G.Matyoqubova she'rlari o'zi mansub bo'lgan avlod she'riyati kabi vatan ichida vatanni, ya'inkim, "Ózbekiston uzra Qoraqalpog'iston va Qoraqalpog'iston ichra ota makon Tórtkólni" doimo ilhaq bólib ramziy nom, ramziy ifoda bilan sog'inib yashagan she'riyat edi:

*...Bu ham emas, bular emas meni qiynagan,
Men yurtimga – Tórtkólimga
Isnod keltirdim,
Gujumdan bir shoxa edim ósgan, yayragan,
Uyalaman, “qayerlikсан, qizim desalar” ... (128-b.)*

Darhaqiqat, she’riyat – she’rga oshufta dilning tarjimoni, dedik. Biroq Guliston Matyoqubova she’rlari faqat dilning emas, jasoratning tarjimasi, shoirauning o‘zi – jasorat tarjimoni, degan bahoni ham olib ulgurgan. Shoira umri davomida o‘zini anglash yo‘lida nechog‘li harakat qilgan bo‘lsa, bosgan har bir qadamida Vatanni anglashga urindi. Shu bois xalq, jasorat, kurash singari muhim mavzu va g‘oyalar yonida Vatan, uning tarixi, davr va shaxs taqdiri haqidagi o‘ylar, qalbdagi cho‘ng og‘riqlar ifodasi she’rxonni ham o‘zligi, vatani haqida o‘ylashga undaydi, uning mudrab yotgan ruqu yuragini uyg‘otadi (chinakam she’riyatning vazifasi ham shu-da!) Shuning uchun U.Normatov qayd etganidek: «Fikrni, asar g‘oyasini óquvchiga sodda, tushunarli qilib yetkazish orqali hayot voqealarini, inson kechinmalarini yorqin tasvirlay olish san’ati har qanday ijodkor mahoratining darajasini kórsatuvchi asosiy omillardan biri»¹, – ekanligiga urgu beradi.

Badiiy ijod qaysi ko‘rinishda, ya’ni xoh xalq og‘zaki, xoh yozma shaklda bo‘lmasin, u o‘zining xalqchilligini namoyon qilsagina xalq sevgan asarlarga aylanadi. Adabiyotda xalqchillik tushunchasining mazmuni shundaki, u o‘zida xalq ruhini, xalqning eng ilg‘or xususiyatlarini qamrab oladi. Xalqchillik haqida rus tanqidchisi Belinskiy shunday fikr bildirgandi: «... agar xalqchillik deganda biror xalq, biror mamlakat odamlarining xulq-atvorini, urf-odatlarini va xarakterli xususiyatlarini haqqoniy tasvirlashni tushunadigan bo‘lsak, xalqchillik chinakam badiiy asarning zarur shartidir. Har qanday xalqning hayoti faqat

¹ Normatov U. Ijodning qo‘sh qanoti. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. 5-bet.

uning o'ziga xos shakllarida namoyon bo'ladi, binobarin, hayot tasviri haqqoniy bo'lsa, u xalqchil hamdir» (14, 250).

I.Sulton ham xalqchilik tushunchasiga alohida e'tibor berar ekan uni quyidagicha ta'rif etadi: "Xalq manfaatlarini u yoki bu darajada ifoda eta bilgan asar xalqchildir. Bu xalqchilikning bosh kriteriysi (o'lchovidir). Xalqchilikning yana quyidagi element yoki tashqi alomatlari mavjud: a) adabiyot va san'at asarining xalqqa tushunarli vositalar bilan yaratilishi; b) yozuvchi ijodining xalq ijodi bilan chambarchas aloqasi; folklorda uchraydigan syujetlardan, tasvir vositalaridan, qahramonlarni tavsiflash usullaridan va hokazolardan foydalanish; v) adabiyot va san'at asarida mehnatkash xalq hayotining va xalq hayotida ijobiy rol o'ynaydigan qahramonlarning tasvirlanish; g) adabiyot va san'at asarida muallif mansub bo'lmagan "begona" xalqlar hayotini obyektiv tasvirining mavjudligi, ya'ni yozuvchi ijodining xalqlar tengligi va do'stligi ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi".

Demak, badiiy adabiyotning vazifasi xalqning hayoti va turmushi, uning orzu-umidlari, manfaatlarini tasvirlashdan iborat. Shuningdek, xalqchilik xalqqa xos bo'lgan xususiyatlarni asardagi qahramonlar xarakterida aks etishi, xalq tilida yozilishi, unda frazeologizmlar va obrazlardan foydalanishida ham anglashiladi.

N.A.Dobrolyubov adabiyotning xalqchiligi tushunchasiga yanada yuksakroq mazmun baxsh etib «chinakam xalqchil asarda xalqning «xususiy maishiy ehtiyojlarigina» emas, xalqning umumiy manfaatlarini aks etishi kerak», - deydi.

Yuqoridagi fikrlarga qaraganda haqqoniylik – reallik xalqchilikning asosiy elementlaridan biri deb tushunadigan bo'lsak, adabiyot va san'at asarlarida tasvirlanayotgan makon va zamon birligidagina u o'z ifodasini to'g'ri anglatadi.

Mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng erk g'oyalari adabiyot va san'atda ham o'z aksini topa boshladi. Ózbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti

I.A.Karimovning “Odamlarda o‘zligini anglash, milliy g‘urur, oriyat, o‘tmishdan faxrlanish, porloq kelajakni o‘z qo‘limizga olganimizdan g‘ururlanish kabi tuyg‘ular kamol topayapti, ularning bugungi va ertangi kuniga ishonchi ortib borayapti” (4, 260), - deb aytgan so‘zlari to‘g‘ridan to‘g‘ri adabiyotimizga ham taalluqlidir. Xuddi shunday orzular qanotida o‘zbek adabiyotida xalqning o‘tmishi, buguni va ertasini kuylagan shoira G.Matyoqubova sanaladi. Shoira she’rlari xalq poetik ijodidagi shakllarga yaqin turadi. Bu esa shoira xalq poetik ijodini tinimsiz o‘rganib, ulardan oziqlanganligini va ijodiy foydalanganligidan dalolat beradi. U o‘z ijodida goh xalq qo‘shiqlaridan, laparlardan foydalansa, goh xalq maqollariyu iboralarini mahorat bilan she’rga singdirib yuboradi. Shu bilan birgalikda she’rlarni xalqqa tushunarli bo‘lgan so‘zlashuv uslubida (ba’zida qoraqalpoq, ba’zida Tórtkól milliy koloritiga xos shevada) yozadi va :

Uy oldida qator gujumlar,

Shivirlardi salqin oydinda,

Bo‘gyop bóyi hali gavjumdir,

Bugun aytgin Tórtkól haqida. (149-b.)

shu til orqali xalq dardini kuylashga intiladi. Bu esa shoira ijodini xalq qalbiga yaqinlashtiruvchi omillardan biridir.

El soginchi ulkan baxt ekan,

Yurtdan ayri tushgan vaqtingda,

Pushmon... azob... umid ne bilan.

Bilsam deyman Tórtkól haqida,

Aytgin singlim Tóttkól haqida. (150-b.)

G.Matyoqubova yangi davr o‘zbek va qoraqalpoq nazmi gulshanida jiddiy izlanishlar olib borayotgan ijodkor sanaladi. Uning ijodida o‘ziga xos estetik salohiyatni namoyish etadigan ifoda salmog‘i mavjud. Shoira "meni" da shaxs ruhiyati hamda ijtimoiy muhit ob-havosi g‘alati tarzda omuxtalashib ketadi. Unda tahlil zichligi tasvir ruhiyatini belgilaydi, unda tafakkur idroki so‘z

zalvorini oshiradi, unda sohir bir dard nafosat hujayralariga singadi, unda falsafiy umumlashma ruhiy-axloqiy olam yaxlitligini dalolatlaydi, unda ijodiy tabdil shoira ruhi va nafasi, ovozi va sozini tasvir tasavvurida alohidalaydigan estetik baholash mezonlariga evriladi.

Badiiy adabiyot tajribasidan bilamizki, qanday ijodkor b'olmasin, adabiyotning qaysi janrda asar yozishga kirishmasin, ijodiy izlanish bosqichidan o'tadi. Ilk yozganlari risoladagidek, silliq, ravon, badiiyat qoidalariga to'la-to'kis javob beravermaydi. K'op o'qish, o'rganish, tinimsiz izlanishlar, buyuk ajdodlar, jahon adabiyoti tajribalarini ijodiy o'zlashtirish, eng asosiysi, ijod mashaqqatlari oldida umidsizlanmasdan, yuksak cho'qqilarini k'ozlab olga intilgan ijodkor, albatta, maqsadiga etadi. Adabiyotning tor so'qmoqlaridan, katta va ravon yo'lga chiqib oladi.

G.Matyoqubova adabiy faoliyatida inson ruhiy borlig'i, o'y-kechinmlari, orzu-armonlari, maqsad-intilishlarini tasvirlash hamisha badiiy adabiyotda tasvir vositalari asosiy mavzu bo'lib kelgan.

Sizni topib,

Men insonni tanidim.

S'ong Ollohni,

S'ong Hayotni.

S'ong O`limni,

Taniy boshladim.

U meni... Oldin b'olaklab.

Mayda-maydalab,

Aylantirdi zarrachalarga.

Yuragimning har zarrasida,

O`zimni yaxshiroq tanishim uchun... (59-b.)

Adabiyotshunos M.Baxtin "nutqiy janrlar" haqida fikr yuritarkan, "gap" tushunchasiga eng oddiy jumladan tortib butun boshli adabiy asarlargacha

kiritadi va ularni nutq jaryonidagi bir *zanjir* deb hisoblaydi¹. Shunday ekan, nutq jarayonida aytilgan gap mazmuniga soʻzlovchi bunga qadar aytgan gaplar (kengroq qaralsa, soʻzlovchining bu gap aytilgunga qadar shakllangan shaxsi) ham, muloqot ishtirokchilari boʻlmish oʻzgalardan tomonidan aytilgan gaplar ham taʼsir qiladi. Shunga qaramay, konkret gapda soʻzlovchining ayni lahzalarda ongi-yu qalbida kechgan oʻy-hislari *modeligina* mujassamdir, sababki, boshqa taʼsir omillarining bari unda faqatgina bilvosita — soʻzlovchi ongi-yu qalbi orqaligina zuhur qiladi. Bundan ayon boʻladiki, ayni shu gapni tushunish maydoni turlicha. Yaʼni, tinglovchilardan har birining gap mazmuniga taʼsir qilgan omillardan xabardorlik darajasi farqli: biri soʻzlovchini yaqindan biladi, ikkinchisi — atigi “koʻz tanish”; biri suhbat kontekstidan toʻla xabardor, boshqasi suhbatga keyinroq kelib qoʻshilgan va h. Holbuki, soʻzlovchi tomonidan aytilgan gap konkret mazmunga ega: bu oʻsha gapni tashkil qilgan til birliklari (tovushlar vositasida moddiylashgan shakli) bilan soʻzlovchining ayni paytdagi ruhiy holati (bu soʻzlovchining yuz-koʻz ifodalari, jestlari, soʻzlash ritmi, ovoz tonalligi, intonatsiya va sh.k.lar vositasida tasavvur qilinadi) birligida namoyon boʻladi. Demak, konkret gapni butun (nutq jarayoni) ning qismi sifatida ham, alohida butunlik sifatida ham tushunishimiz mumkin ekan.

Tadrijiy takomillashib, rivojlanib kelayotgan oʻzbek lirikasi qiyofasi hamda nufuzi kechagidan tubdan tafovutlanadi. Yangilanayotgan badiiy tafakkur miqyoslari yangicha talqinlarni idrok etishni taqozo etmoqda. Har bir davr badiiyat solnomasi mohiyatida shaxs ehtiyoji aks etadi. Muhitdan inson ziyatiga koʻchgan yetakchi tasvir unsurlari joriy sheʼriy dunyoqarashni toʻla idrok etishga zamin hozirlaydi. Negaki, inson tabiatan murakkab va oʻzgaruvchandir. Mudomi oʻzligini anglash, tushunishga intilayotgan odamzod maʼnaviy saviyasi amaldagi poetik idrok mavzu-mundarijasini belgilaydi. Aslida shaxs ziyati insoniyat tafakkuriga taʼsir oʻtkazadi. Shoira jamiyat ichida, «qaynoq hayot qoʻynida» turib ruhiy olamimizni ifodalashga kirishar ekan,

¹ Baxtin M. Estetika slovesnogo tvorчества.-M.,1979.-S.254-256;

inson degan murakkab va ko'p qirrali shaxs butun tashqi va ichki dunyosini to'la-to'kis idroklab berishga ba'zan ojizlik qiladi. Chunki har bir ko'ngil o'z yashash maydoni chegarasiga ega. Uni anglash miqyosi qanchalik qiyin bo'lsa, ruhiyatni anglatish jarayoni ham shunchalik murakkab tarzda kechadi.

Azal-azaldan san'at inson mayli to'kisligini o'rganishga intiladi. Istak hamda imkon orasida kuzatiladigan tafovut uning hayotiy qamrovini belgilaydi. O'z navbatida, har bir adabiy tabdil odamzod xarakteriga singdirilgan «mavjudlik jumbog'i»ni xoslanganlik darajasida hal etishga harakat qiladi. Aniqrog'i, ifoda ichki uyushmasi va estetik tanlov chegarasi shuni taqozolaydi. Shu ma'noda, adabiy tafakkur tizimi adabiy mushohada mantiqiy taraqqiyotini tugal va yaxlit, tuyg'u va ong tutashuvini to'liq va batafsil, tasvir va ifoda bir-biriga o'tib turishini ixcham va siqiq tarzda jilvalantirish quvvatiga ega. Binobarin, inson mohiyatini holat va harakat uyg'unligida umumlashtirishga moyillik badiiy munosabat lirik tasavvur kengligini dalolatlaydi. Muallif taassurotlar hosil qilgan poetik turtkini tasvirlar ekan, buni faqat bir maqsadda – kitobxonga ruhiy harakatni kuzatishga imkon berish maqsadida qiladi. Unda ijodiy a'zolar vazifadoshligi kuzatiladi.

Aslida har bir ifoda hayotiy materialni qayta ijodiy shakllantirish jarayoniga o'ziga xos tarzda yondashadi. Shakliy aloqa va ziddiyat hajmi aynan usul vositalar turfaligini tashkil etadi. Unda talqin tizimi uzviy taraqqiyoti va badiiy mantiq maqsadi qorishib ketadi. Ayni paytda, raqobat badiiy vazifadoshlik imkoniyatini cheklaydi.

Buyuk rus munaqqidi M.Baxtin ilg'am xususiyatlari tafovutini uchga ajratadi: birinchidan, anglash tizimi rang-barangligiga bog'liq va unda in'ikos topadigan uch uslubiy o'lcham ifodasi, ikkinchidan, asarda adabiy obrazning vaqtinchalik miqyoslari tub o'zgarishlar hosilasi, uchinchidan, zamonaviylik va uning tugallanmagan mohiyatiga maksimal yaqinlashadigan adabiy obraz yangi

mintaqasini tashkil etish vositasi¹. Tarifda bir nechta nuqtalar mavjud: dastavval, oliy shakl – asar tili ong nutqiy sarhadlarini kengaytiradi, ikkinchidan, badiiy makon va zamon ijodkor fitratiga bo‘ysundiriladi, uchinchidan, yangi adabiy voqelik ijtimoiy borliq bilan bo‘ylashadi.

Ba`zi ijodkorlarda óqish, órganish, izlanish muddati biroz chózilib ketadi. O`quvchilarda tezda kórinavermaydi, badiiy mahoratni egallash bobida sustkashlik kuzatiladi. Aytish mumkinki, G.Matyoqubova bu masalada omadli qalam sohiblaridan biri. Uning dastlabki izlanishlaridayoq hayot haqqoniyligi va tasvir haqqoniyligi bir-biriga tutashadi. To‘g‘rirog‘i, obyektiv mohiyat mavhumligi va subyektiv munosabat aniqligi uchinchi voqelik – badiiy tasvir tizimini yaratadi. Har bir she`rida dunyo, tabiat, odamlar haqida mushohada yuritib falsafiy-botiniy xulosa chiqarishga intiladi:

*Samodagi qush yulduz misol,
Bir-biriga bunchalar yaqin,
Deyar emish bizni kórganlar,
Kózlarida havasli yolqin...
Bir-biriga bo`glangan yurak,
Qósh yulduzga óxshashi yol`gon,
O`ylab kóring axir,odamlar,
Har yurakning ózi bir bo`gbon...*

Boshqa bir she`rida shunday satrlar ham bor:

*Yulduzlarning nuri bor ammo,
U hech qachon isitmas erni.
Qalbimiz-chi, agar bilsangiz,
Qamrab olgan butun mehrni...*

G.Matyoqubova ótgan asrning 60-yillari ikkinchi yarmida yuqoridagidek teran ma`noli, gózal ramzlarga boy, hech bir shoirga óxshamaydigan poetik ovozi bilan adabiyotga kirib keldi. Muallif she`riyatida “osmon”, “oy”,

¹ Baxtin M.M. Literaturno-kriticheskie stati. –M.: Xudojestvennaya literatura, 1986. –S. 399.

”quyosh”, ”yulduz”, ”bulut” obrazlari bot-bot uchraydi va har birini inson hayoti, ruhiy olami bilan bogʻlab talqin etadi. Odatda, yulduzlar ideal narsa va hodisalarga, biror sohada yuksak dovonlarni zabt etgan, huddi yulduzdek charaqlab, nur taratib turgan odamlarga nisbat beriladi. Hamma ham yulduzga óxshagisi yoki óxshatilgisi keladi. Biroq G.Matyoqubovanning yulduzlar haqidagi mushohadasi sal boshqacharoq. Hatto u “yulduzlarga óxshatmang bizni”, deydi. Fikrimizcha, shoira insonning qalb nuri, mehri har qanday yulduzning yorqinidan ham ustun, u “muzlagan yuraklar” ni ham eritib yuborish qudratiga ega tuyúgu demoqchi. Muallifga “yulduz” obrazi shu gʻoyani ifodalash uchun kerak bólgan:

*Yulduzlarim sónsa qolar armonim,
Umidlarim uchsa qolar armonim.
Kóngildagi mehr óyini buzib,
Oqibatlar ketsa qolar pushaymonim...*

Misralarda qisman tushkunlik kayfiyati bólsa-da, lirik qahramonning mushohadasida umid va ishonch ruhi ustun. Fikrni obrazli shaklda misralar baǵriga muhrlash va shu orqali she`rning badiiyligiga erishish G.Matyoqubova uslubining yetakchi prinsiplaridan biri. Shoiraning dastlabki yillarida bitilgan qaysi bir she`rini olib kórmaylik, ularda yalangoch tasvir yóq. Har birida obrazli fikr, chiroyli óxshatishlar kózga tashlanib turadi. She`rlar shunchaki, baland parvoz haroratsiz, soxta tuyúgularga emas, balki lirik qahramonning haqiqiy kóngil kechinmalari, iqrorlari va inkorlari asosiga qurilgan, chuqur ma`noli ijod namunalaridir. She`rni she`r qiladigan vosita obrazlilik ekani ma`lum. Shoira qanday mavzuda she`r yozmasin, bu qoidaga amal qilsa, hayot hodisalarini, inson va tabiat munosabatlarini obrazli shaklda yoritisa, u qalamga olgan mavzuda shoirning estetik ideali ham yorqin namoyon bóladir. Shu jihatdan G.Matyoqubovanning kópchilik she`rlari óquvchiga badiiy estetik zavq beradi:

*Kel, yana tong boltib qora kózimga,
Yana bulut bólib yuzimga quyil.*

*Bezovta shamol ból aytar sozimga,
Mehrims-la bezayin butun bast-boying...*

“Tut” nomli she’ridan, mana, yana, bir parcha:

*Tut bardamdir shoxlarin kessalar ham.
Mevalarin pishirmay uzsalar ham,
Qoq libossiz, yalangoch qolsa hamki,
Bagrini qurtga emish deb solsa hamki,
Armoni bir, orzusi-bir shu havas:
Qiz egnida hilpirab yursa atlas!...*

Shoira birinchi tórtlikda tabiat hodisalari “tong”, ”bulut”, ”shamol” sózlari orqali insonning ruhiy olamini tahlil qiladi. Har qanday nohushlikni mehr nuri ila munavvar qilish mumkin, degan góyani ilgari suradi. Ikkinchi misolda esa, hayotining mazmun-mohiyatini ózidan kóra, ózgalar manfaati uchun sarflashga tayyor fidoiy insonlar haqidagi fikr “tut” timsoli orqali yaxshi ochilgan. Bunday misollarni shoir she`riyatidan yana keltirsa bóladí. Nima demoqchimiz? G.Matyoqubova she`riyatdagi dastlabki qadamlaridek , mas`uliyatni his qilib qóliga qalam oldi, imkon qadar engil-elpi, badiiyati sayoz she`rlar yozishdan ózini tiyishga intiladi. Lekin bu fikr shoira ilk ijodidan boshlaboq bekamu-kóst she`rlar yozib, hammani qoyil qoldiradi, darhol kitobxonlar qalbiga yól topdi, degan ma`noni anglatmaydi. Kópchilik ijodkorlar adabiyotda dastlabki ijodiy izlanish bosqichida qanday baland-pastliklarni bosib ótgan bólsa, G.Matyoqubova ham shu yóldan ótdi. Ozmi-kópmi sayoz she`rlar yozganini inkor etmaymiz. Va bu she`rlar muallif ijodining dastlabki yillariga tegishli, kam sonli bólgani uchun, asosan, she`riyati izlanish bosqichida uzoq qolib ketmasdan, muvaffaqiyatli she`rlar bitganini hisobga olib, zaif she`rlariga alohida urgu berishni xohlamadik.

Xullas, G.Matyoqubovaning adabiyot maydonidagi ilk qadamlari mana shunday omadli bóldi. O`zbekiston va Qoraqalpogiston matbuotida birin-ketin she`rlari bosilib, muxlislar nazariga tushdi. Markaziy nashriyotlarda

“Hayajonning yetti rangi”, (Toshkent, 1983) “Oydin ostida” (Toshkent, 1985) sheʼriy toʻplamlar chop etildi. Va sheʼriyat muhlislari uchun qisman bólsada, shoira ijodi bilan tanishish imkoni tugʻildi. Bu esa adabiyotga óziga xos poetik ovoq, talant yónalishi bilan yangi bir shoir kirib kelayotganigdan darak berardi.

Tógʻri, G.Matyoqubova sheʼrlari tasvir ruhiyati va ifoda davomiyligi yaxlitligi adabiy talqin umumiy manzarasini tayinlaydi. Biroq badiiy yoʻsin ijodiy imkoniyatlari cheklanganligi va barqarorligi shoira estetik shaklda voqelik, rang-barang obrazlar talqinini muttasil boyitib borishga intilishi jarayoni bilan toʻqnashadi. Yaxlitlik va gʻoya tanlovi oʻziga xosligi har bir ijodkor fitratiga daxldor xususiyat. Shu maʼnoda, shoira uslubiy-shakliy tajribasi xilma-xil poetik uyushmalarni jipslashtiradi. Aniqrogʻi, shakl, mazmun va uslub oʻrtasidagi badiiy munosabatni qayta tiklash uning asosiy estetik vazifasi sanaladi. Yengil tahliliy marom talqin butunligini taʼminlaydi. Ayni tasavvurni “badiiy tadqiqot teranligiga yoʻnaltirish” tizimi moddiy va maʼnaviy qadriyat mezonlari turli-tumanligidan oʻsib chiqadi. Unda hayot haqiqati badiiy talqin vositasida toʻldiriladi, boyitiladi va tartibga solinadi. Agar asl voqelikni nihoyatda keng va mavhum obyekt tarzida qabul qilsak, adabiy mohiyat uning yaxlitlikda qayta tiklangan ifodasi sanaladi.

Alxusus, G.Matyoqubova sheʼrlarining badiiyati – soʻzning obrazga aylanishi – estetik jihatdan oʻta faollik, mavzu va obrazlar rang-barangligi kasb etishi uning hissiy boyitilgan, aniqlik va yaxlitlik kasb etgan, estetik jihatdan baholangan reallikka aylanishidan iborat. Chunki bunda soʻz oʻzining material estetika obyektligidagi maʼnosini boyitgan ifodada koʻpqirralik, rang-baranglik kasb etadi. Darhaqiqat, shoira sheʼrlarining badiyatida asosiy tushuncha mantiqiy taraqqiyoti moddiy asos va ijodiy mayl tabiatini bir-biridan tafovutlash lozimligini koʻrsatadi. Unda tushuncha nominatsiyasi tasavvurda boyitilgan, ijodiy mantiqda taraqqiy topgan hamda ruhiy tahlilda teranlashtirilgan adabiy talqinga aylanadi. Binobarin, estetik shaklda voqelik, rang-barang obrazlar

talqini hissiy idrok predmetini sharhlaydi. Aynan adabiy mushohada taraqqiyoti ijodkor fitrati alohidaligini barqarorlashtiradigan mazmuniy birlik hisoblanadi.

1.2. Guliston Matyoqubova ijodi Ustoz zamondoshlar nigohida

Badiiy mantiq, talqin va tahlillar inson, tabiat hamda jamiyat sarhadlariga tarqalib ketgan uygʻunlikni kashf etadi. Ichki mohiyat va tashqi mundarija orasidagi aloqa badiiy yaxlitlik kafolati, unda subyekt va obyekt tigʻizligi, shakl va maʼno vobastaligi, tasavvur va gʻoya mushtarakligi, talqin va tahlil ziddiyatlari oʻz ifodasini topadi. Aslida “har bir sanʼat asari dunyoning yaxlitligini tasdiqlovchi manifest”² hisoblanadi.

Adabiy hamjihatlik real voqelik hamda ijodiy qamrov orasida qayta shakllanadigan munosabat tizimi tajribasini markazlashtiradi. Adabiyot falsafasi hissiy idrok vositasida sanʼat asarlari darajasiga kótarilgan oʻzaro zichlikni asoslashdan iborat. Shu oʻrinda taʼkidlash joiz, mohiyat hamisha mavhumlik qadar harakatlanadi. Tasvirdan ifodaga, ifodadan gʻoyaga muttasil oʻtib turish aloqalantirilgan mushohadani tahlilga yuzlantiradi. Binobarin, tahlil va talqin insoniyat fikrlash madaniyati ikki bosqichi, imkoniyat hamda mantiq mushtarakligi poetik butunlikni tayin etadi.

Shu maʼnoda, shoira Guliston Matyoqubova sheʼriyatiga ham lirik sharh mustaqil, aniqlovchi va toʻldiruvchi ijodiy aʼzolar badiiy intizomidan iborat, deb bildik. Zotan, talqinda tasvir ruhiyati intensivligi ifoda mustaqilligi tarqoqligiga olib keladi. Uni tasvir barqarorlashgan, ijtimoiy-ruhiy-falsafiy mohiyat tugalligidan tashkil topgan voqea-hodisot izchil saviyasi sifatida baholash mumkin.

Shunday ekan, ishimizda Shoiraning adabiy tafakkurida, ijodida tafsilot, taassurot va tahlilga ham ózig xos oʻrin ajratishga erishdik. Goh oshkor, goh yashirin tarzda namoyon badiiy maqsad muntazam turtki va oqibat mantiqiy bogʻlamini qayta tiklash vazifasini bajaradi. Ichki uygʻunlik, nisbiy shartlilik va hayotiy-maishiy asos adabiy talqin tiyatini belgilab beradi. Ijtimoiy voqelik

² Jahon adiblari adabiyot haqida. –T.: Maʼnaviyat, 2010. –B. 127.

bilan g‘oyani tutashtiradigan poetik ong taqlid hamda tabdilni estetik markazga yig‘adi...

Har bir chamanning o‘z guli, o‘z chiroyi bor, shu bilan bir qatorda, har bir gul o‘z ifori, o‘z tarovati bo‘lgani kabi ijod atalmish ilohiyot bog‘idagi bulbullar xonishi ham o‘ziga xos. O‘zbek va qoraqalpoq adabiyoti olamida o‘z o‘rnini topgan, o‘z sozini chalib ulgurgan va she‘riyat ixlosmandlari qalbidan muqim joy olgan shoiralardan biri Guliston Matyoqubova. “Shoira o‘z zamondosh shoirlariga qaraganda an’anaviy talqinda shaklan siqqlik va mazmunan teranlikka intiladi” deydi, adabiyotshunos olim Karimboy Quramboyev, óz tadqiqotlarida¹. Shu muddatda u adabiyotning bir necha janrlarida asarlar yozdi. Gazeta-jurnallar, adabiy tóplamalarda bosilgan asarlaridan tashqari, hozirgacha ózbek, qoraqalpoq va rus tillarida óttizga yaqin kitob chop ettirdi. Ikki jilddan iborat rus tildagi “Saylanma” lari (2015) ham muhlislar qóliga tegdi. Tabiyki, bunday sermahsul va serqirra ijod ilmiy-adabiy jamoatchilik, mutaxassislar nazaridan xoli bólishi mumkin emasdi.

O‘zbekiston va Qoraqalpo‘gistonning taniqli shoir va yozuvchilari, olimlari uning adabiy faoliyatiga befarq bólmagan. Matbuot orqali yoki biron kitobining nashr qilinishi, yoxud taqdimoti munosabati bilanmi, fikr bildirib taqrizlarida ham qóllab-quvvatlab kelmoqda. Kitoblariga yozilgan “Sóz boshi” lar ham shu xildagi e‘tiborning bir kórinishidir. Qisqasi, adiba ijodi yuzasidan hozirga qadar aytilgan fikrlar, yozilgan maqolalar, taqrizlar jamlansa salmokli kitob bólishi mumkin. Bu jarayon bizda shoira ijodi tógrisida bildirilgan fikrlarni umumlashtirib sharhlash fikrini uygótdi. Bu, birinchidan, ózbek va qoraqalpoq adabiyotshunosligida G.Matyoqubova ijodini baholashdagi umummanzarani oydinlashtirsa, ikkinchidan, shoira ijodi misolida ikki adabiyotga xizmat qilishning óziga xosligi, afzalliklari borasida ham muayyan xulosalar chiqarishga yordam beradi. G.Matyoqubova ijodiga ba‘gishlangan maqolalar kóp. Hajmi turlicha, saviyasi ham har xil. Barchasini kózdan

¹ Karimboy Quramboyev, Gulandom Quramboyeva. Gul bor Guliston ichinda. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2016-y.

kechirish imkoni, bizningcha, zarurati ham yóq. Asosan, nisbatan ilmiy tahlilga qurilgan, ijodining etakchi tendensiyalari, biror asarining badiiy-estetik salmođi, poetik mahoratiga doir e`tiborli fikrlar aytilgan ishlarga kóproq tóxtashni ma`qul bildik. Zero, shu xildagi ilmiy-tadqiqotlarga ijodkor yoki biron asarining adabiyotdagi órnini belgilashda móhim. Sóz yuritilmoqchi bólgan maqolalarga shu talabdan yondashamiz. Dastlabki fikrlarimiz atoqli shoira Zulfiyaning G.Matyoqubova ijodiga bađishlangan maqolasi haqida bóladı. Maqola “Gulistonning bóstoni” (“O`zbekiston adabiyoti va san`ati” gazetasi, 1993, 30 aprel) degan nomda e`lon qilindi. Kitobning oldingi bólimlarida maqolaga qisman munosabat bildirib, ba`zi kóchirmalarni keltirilgan edik. Ozbek adabiyotida birinchilardan bólib, adabiy jamoatchilikni, kitobxonlarni qoraqalpoq zaminidan etishib chiqayotgan talantli shoira bilan tanishtirishda maqola muhim rol` óynaganini yana bir bor e`tirof etishni istardik. Ustoz shoiraning bundan qariyb yigirma besh yil oldin shogirdi ijodiga bildirgan fikrlari, basharti hozir ham ahamiyatini yóqotgan emas.

G.Matyoqubova uzoq yillar benazr inson, betakror shoira Zulfiya bilan ustoz-shogird bólib, hamkorlik qildi. Ijod maktabidan saboq oldi. Va bugun u ustozlari qilgan martabaga etdi. Tógri, maqola yozilgan davrlarda G.Matyoqubova hali ijodiy izlanish bosqichida edi. Ijodning ulkan dovonlarini egallashga ulgurmagandi. Biroq shoira shunday ijodiy potencial borligini, kelajakda undan iste`dodli shoir etishib chiqishi mumkinligini ba`zi kitoblarini óqib Zulfiya sezgan va quyidagi xulosaga kelgan edi. “Guliston ayni kuch-quvvatga tóla qalbini umid va xizmatga xohish tuygulari yashnatib turibdi. Va shoira bu ishonch va muhabbatlarga hamma vaqt loyiq qolish uchun butun aytajaklarini qalamga ortib yorqin-yorqin zabardast she`rlar yozadi. Muallif fikrlarini davom ettirib yana yozadi: “Shoiramizning “Hali yozilmagan sahifasi kóp”, daftarini yangi, yaratuvchi mehnatkash xalqimizning turfa yaxshiliklari aks etadigan, umummadaniyatimizni tóldiradigan, she`riyatimizga yorqin sahifa bólib kiradigan she`rlar yaratishga ishonib turibman”. Ustozning shogirdi ijodiga

bildirgan bu fikrlari, e`tirofi va ishonchi naqadar to`gri,asl haqiqat ekanligini qayta-qayta ta`kidlagimiz keladi. G.Matyoqubovaning bugun adabiyotda erishgan muvaffaqiyatlari, ijodda egallangan marralar, xalqimiz, jamoatchilik, kitobxonlar ortasida qozonilgan obró,hurmat ustozlari ishonchi oqlangani dalili emasmi?

G.Matyoqubova tabiatan his-hayajonga, rang-barang kechinmalarga boy shoira quvonch haqida yozadimi yoki qayg`uni qalamga oladimi, yurak to`lqinlarini shunday ifodalaydiki, hissiyotlar tasviri sizni ham sehrlaydi. Lirik qahramon bilan birday ósha holat o`gushida qolasiz. To`gri,bu har bir shoirdan talab qilinadigan mezon. Lekin G.Matyoqubova lirikasida bu jarayon óta jóshqin, óta ta`sirli va óta hayajonli, qalbini junbushga keltiradigan poetik ohangda kechadi. Bu xususiyat shoira uslubini belgilaydigan unsur ekanini Zulfiya birinchi marta kórsatgan edi. Shoira she`rlarida “goh sokin, goh jóshib yashayotgan qalbning yoniq to`lqinlari” mavj urib turishini, uning “dardi, o`gri`gi, quvonchi, butun hayoti atirgulning rangida, tikonida, u quvvat olgan zaminda, Oroidan faryod chekib esayotgan shórhok shamollarda” aks sado berishini, bular shoira ning “yurak dardi,hayajoni bilan qorishtirib” talqin etilganini Zulfiya iste`dodining umidbaxsh nishonlari deb baholagandi. Ijod po`gonalariga dadil kótarilib borayotgan shoira uchun bu fikrlar qanot bóldi,yangi marralarga ilhomlantirdi. Uning bugungi ijodiy salohiyati, bir vaqtlar ustozdan olingan “oq fotiha”ning amaldagi natijasidir. Ustozdan boshlangan bu an`ana, shoira ijodiga munosabat bildirish ózbek va qoraqalpoq adabiyoti va adabiyotshunosligida davom etdi, faollashdi.

O`zbekistonda G.Matyoqubova talagtiga baho berishda Zulfiyaga ham fikr ijodkorlar ancha-muncha bor. O`zbekiston xalq shoiri Omon Matjon “Saodatlik iste`dodga ehtirom”¹ maqolasida vohadan chiqqan san`at dar`galari, betakror ovozi, ijro mahorati haqida sóz yuritar ekan, gapni G.Matyoqubovaga bo`g`laydi. Va uning shoirlik talantini qóshiqchilik san`atimizning yorqin

¹ O.Матжон. Саодатлик истеъдодга эҳтиром. “Қайтмоқ учун кетмоқдаман”. Нукус, 2007, 239-бет

yulduzlari Otajon Xudoyshukurov va Muyassar Razzaqovaga óxshatadi. “Gulistonning she`rimizdagi ovozi nodir hodisadir”. Qiyos orginal, asosli, fikrning mohiyatida shoira ijodiga berilgan yuksak baho ham bor. Muallif fikrini yana davom ettiradi: “Ayol kishining she`riy mehnati, mantiq tugalligi, zarb joyi, sózlov, izhor butunligi, bayonning tóliq sodir bólishi bilan talabchan nazarimizni boyitadi, har bir inson tabiatning noyob, qaytarilmas, mó`jizasi ekanligi Guliston qalamida alohida manzurlik, ishonarli samimiyat, ogohlik undovlarini kasb etadi”.

G.Matyoqubova lirikasining falsafiy asoslari, ijtimoiy salmo`gi badiiy-estetik saviyasini belgilaydigan bu fikrlar shoira she`riyatini baholashning yangi mezonlaridan biri, desak xato bólmaz. Shoira Qutlibeka Raximboevaning “Gul bor Guliston ichida” maqolasi safdoshining “Izlaganlarim” tóplamiga yozilgan taqriz. “Izlaganlarim” kitobi muallifning she`riyatdagi yutuqlaridan biri bóldi. Undagi har bir she`r dostonlar shoiraning ijodiy imkoniyati kengligini, adabiy-estetik tajribasi, mahorati oshganini kórsatdi. Taqrizchi shoira lirikasiga xos xususiyatni, mavzu tanlash va badiiy talqin principlarini, lirik qahramon kechinmalarini berishdagi individualligini misollar bilan tahlil qiladi. Hissiy rang-baranglik, falsafiy ma`no, lirik qaxramonni bezovta qilgan tuygular, inkor va tasdiqning sintezlashgan shaklda berilishi, komillik belgisidir, deb xulosa chiqaradi taqriz muallifi.

Shoir ózini “kópincha óz armonlari,alamlari bilan yolgiz”his qilishi, biroq uning yolgizligi-siniqlik emas,sinish emas, uning yolgizligi osmondagi quyoshning, oyning yolgizligiday. Yashirinish, bekinish,qochish yóq bu yolgizlikda.Kópning dardu quvonchlarini olib yuqoriroqqa kótarilish bor”,deb yozadi Q.Rahimboeva. Shoira lirikasining ózagi bólgan bu ruhiy erkinlik taqrizda yaxshi aytilgan.

G.Matyoqubova ijod ózbek adabiyotshunos-tanqidchilari nazarida ham bulib kelmoqda. Olimlarning maqolalari va taqrizlarida “Izlaganlarim”, “Muhabbat yurti”, “Ota yurtim”, “Vatan ruhi” “Ota uyim”, kitoblarining

Toshkentda, Nukusda Yozuvchilar uyushmasida ótkazilgan taqdimotlarda bildirilgan ijobiy fikrlarini berilgan xolis baholarni tilga olishni istardik. Ayrimlariga kengroq tóxtasak órinli bólar. Akademik B.Nazarovning “Guliston haqida sóz”¹ maqolasi G.Matyoqubovanning “Ijodiy portretiga chizgilar” ruknida bólib, shoira lirikasi va dostonlari, publicistikasi bir qadar kórib chiqiladi, muhim fikrlar aytiladi. “Daryoga botayotgan quyosh”, “Ziyoga botayotgan daryo”, “Quyosh qizi yoki Samo sadolari”, dostonlari muallifning “ijodiy yuksalish dovonlari” deb baholanadi. She’riyati specifikasi haqida sóz ochib, olim uni “kóngil shoiri”, ”she’rlarida dardli kóngil mavjlari”, ufurib turadigan qalam sohibasi ekanligini qayd etadi. Shoirani “she’riyat bóstonini rang-barang gullar bilan boyitayotgan”, “badiiy salohiyati keng”, “tafakkur qudrati kuchli”, falsafiy lirik she`rlari, baquvvat doston va poemalari, ótkir publicistikasi bularning barchasini umumlashtirib, uni “óquvchi qalbini munavvar qiladigan asarlar ijodkori” deya ta’riflaydi. Bu fikrlar maqoladan shunchaki terib olinmadi. Ilmiy qarashlarda shoira lirikasi xos badiyyat jilolari nozik idrok etilib, mantiqli xulosalar chiqarilgan. “She’rdagi chuqur tafakkur, sharqona falsafa, samimiyylik, qalb iztiroblari, dardlari, ótmish merosimizga cheksiz ehtirom va farxlanish tuygusi, kelajakka ishonch, ona yutga muhabbat, sadoqat kabi fazilatlar óquvchini befarq qoldirmaydi”. Bu fikrlar ham akademik B.Nazarovga tegishli. Bu ilmiy qarashlar shoiraning ijodiy imkoniyatlari keng va rang-barangligini tasdiqlovchi, qolaversa, fikrlar “kóngilning sirli dunyolari, past-balandliklari uzra qushdek erkin parvoz qilayotgan” (T.Kaypberganov) shoira ijodiga berilgan munosib baho hamdir. B.Nazarov yana: “Men Guliston Matyoqubova davrimizning shaxslaridan biri bólib etishganligini, bu shaxsda Tómarisday buyuk onalarimiz qoni oqayotganiligini baralla aytgim keladi! U ózining barkamol, kóp qirrali ijodi bilan katta ijodkor shaxs ekanligini isbotladi” – deganlarida haqli, albatta. Ha, bugun G.Matyoqubovanning iste`dodli shoir, mohir yozuvchi, talantli publicist, taniqli jamoat arbobi, fidoiy

¹ Б.Назаров. Гулистон ҳақида сўз. “Қайтмоқ учун кетмоқдаман”, Нукус, 2007. 240-245б

rahbarlardan biri bólgani xalqimizga kunday ravshan. Bular shoira qiyofasini, ijod maktabini nurlantirib turgan yorqin chizgilar ramzida maqola mazmuniga singdirilgani, shoira adabiyotimizdagi órni e`tirof etilgani ibratdir.

Adabiyotshunos va tanqidchi N.Xudoyberganovning “Kóngil quyoshi va dardlari” maqolasida shoira “Daryoga botayotgan quyosh” she`riy tóplami xususida sóz ochiladi. Dostonlardan olgan taassurotlari bilan fikrlashadi. Mutaxassislar yaxshi biladi, N.Xudoyberganov uncha-muncha asarni tan olavermaydigan, badiiy-estetik salohiyati kuchli, har qanday asarga badiyat talablaridan kelib chiqib yondashadigan, maqtovga emas, kóproq tanqidga moyil munaqqidlardan edi. Talabdan tanqidchi G.Matyoqubova ijodiga ham shu aqidasidan kelib chiqib yondoshadi. Xolis baholash yólidan borib, kóproq maqtaydi. Shoira sóz qóllash mahorati, obrazlilikdan foydalanish tajribasi, daryo, quyosh ramzlarining asl va kóchma ma`nolarida falsafiy fikrlarni ifoda etishdagi vazifasi tógri yóntirilgani ma`qullanadi. Shular tufayli “shoira yaratgan hayratomuz va ajoyib olamga kirganday bólasiz” deb yozadi tanqidchi. Umuman, maqola ixcham bólsada, shoira ijod olami she`riyatining sifat kórsatgichlari tógrisida tasavvur beradi, adabiy-badiiy sohadagi faolligi, intilishlari qóllab-quvvatlanadi. Maqola nihoyasida bu ijod olamini alohida órganish lozimligi tógrisidagi taklifini órtaga tashlaydi, adabiyotshunos olimlarni bu ishga da`vat etadi.

G.Matyoqubova Qoraqalpog`istonda yashab, ham ózbek, ham qoraqalpoq tilida ijod qilib kelayotgan shoira. Asarlari, kitoblari qoraqalpoq va ózbek tillarida chop etilmoqda. Shoira ijodi ózbek kitobxonlariga qanchalik sevimli bólsa, qoraqalpoq óquvchilari ham asarlarini ardoqlab mutolaa qiladi.

Qoraqalpoq shoir va yozuvchilari, adabiyotshunos olimlar ham uning adabiy faoliyatiga e`tiborsiz emas. Aytish joizki, Tólepbergen Qaypbergenov, Ibroim Yusupov, Mengliboy Bóronov, Karimboy Quramboev, Feruza Sapayevalarning ilmiy, ilmiy-ommabop, ilmiy-adabiy maqolalarini namuna qilib kórsatsak arziydi. Jumladan, I.Yusupov Guliston Matyoqubovaning

Qoraqalpog'istondagi ustozlaridan biri. Ijodining dastlabki yillaridan boshlab uning mashatlari, she'riyat saboqlaridan baxramand b'olib, adabiyotga qadam q'oyganini shoira bot-bot eslaydi. Kitoblaridan birida bundan qariyb o'ttiz yil oldin I.Yusupovdan olgan maktubini keltiradi. Xat shoira she'riyatiga munosabat bildirish mazmunida b'olib, unda "she'riyatga muhabbati cheksizligi", "shoirlik talanti borligi" qayd etiladi. Shu bilan birga, she'rda "Qandaydir bir insoniy tuygu, hayajon sezilarli emas" ligini, "insoniy fazilatlar bilan yurak urib turar ekan, insoniy dardlarga to'la satrlar ham lozim" ligini maslahat tarzida bildiradi.

Bu mulohazalar bilan tanishganda, bir fikr xayolimizdan o'tadi. Adabiy muhitda: Guliston Matyoqubova dardli shoira. Yaxshilik bilan yomonlikni, quvonch bilan qayg'uni kuyinib, suyunib yozadi" (K.Quramboyev – izoh bizniki, P.G.) degan gap yuradi. Chindan ham bu fikrda jon bor. Shoiraning adolatsizlikka, yovuzlikka munosabati o'ta keskin va murossasiz. Lirikasiga xos bu xususiyatni kitobning oldingi sahifalarida ta'kidlab aytgan. Ehtimol, bu ehtirosli tuygularning keyinchalik shoira lirikasida bosh motivga aylanishida bir vaqtlar I.Yusupov tomonidan bildirilgan mulohazalar, istaklar, maslahatlar turtki b'olganidir. Harholda shoiraning insoniy tuygudan xoli, his-xayajonsiz she'rlar yozishdan qutilib chinakam "dardli shoira" b'olib shakllanishda ustoz fikrlarining ozmi-k'opmi saboqi bor, nazarimizda. Maktubning s'ongida shoira lirikasidagi yana bir kamchilik tilga olinadi. "Sizda taqlid bor, taqlid she'rning chiroyini ochib k'orsata olmaydi. Tandirga non yopganingizday yonib, terlab, sodda b'olsa ham o'zingizcha yozing, hech kimga taqlid qilmang, siyinmang, tobe b'olmang, ma'grur b'olmoq o'zingizga bo'g'liqdir". Fikrlar, garchi G.Matyoqubova nazarda tutib aytilgan b'olsada, aslida, bu poetik ijodning zarur sharti, qonuniyat. Taqlid ijodni, ijodkorni o'zligidan mahrum qiladigan, kimningdir soyasiga aylantirib q'oyadigan illat, samarasiz "ijod" turi. Ijodiy izlanishlar tufayli shoira bu kamchiliklardan ham qutildi. Oradan ancha yillar o'tgandan keyin I.Yusupov shoira ijodiga yana bir nazar tashlab tubdan boshqacha baho berdi. Va "ayol

yuragining nozik tuygulari” maqolasida “shoiraning tabiati, jon-yuragi, ruhiy dunyosi, iztiroblari va quvonchi, umid va armonlari, uning inson qaygusi bilan qaygurshi, yuragi hayot tashvishlari bilan qaynab turgan ekologik toza, tip-tiniq buloqday” lirikasida ishonarli va tabiiy ifodalanayotganini qoniqish bilan yozadi. “Guliston hozirgi zamon o‘zbek, qoraqalpoq shoiralari bosib o‘tgan mashq qilish, taqlid qilish, izlanishning mashaqqatli yo‘llaridan o‘tib, o‘zining ravon so‘qmo‘giga chiqib oldi”. Maqolada ko‘pchilikning ko‘nglida yurgan yana bir yaxshi gap aytilgan. Qoraqalpo‘g‘istondagi qator shoira qizlarning nomlarini sanab G.Matyoqubovaga kelganda, I.Yusupov “men Gulistonni shu yulduzlar chamanining cho‘lponi deb atagim keladi” deydi. Bu, birinchidan ustozning shogirdi erishgan martabadan rozilik alomati bo‘lsa, ikkinchidan, atoqli bir ijodkorning shoira iste‘dodini tan olgani belgisidir.

T.Qaypberganov ham Guliston Matyoqubova ijodini, asarlarini qadrlagan adib edi. Doimo maqola va taqrizlarida shoira ijodi to‘g‘risida ijobiy fikrlar bildirib keldi. Yozuvchining “Ozod ko‘ngil chechaklari” maqolasi shunday e‘tiroflarning biri deyish mumkin. Maqola hajman katta bo‘lmasa-da, shoira ijodi, mahorati, talantining yetakchi xususiyatlari to‘g‘risida yetarli ma‘lumot beradi. Shoira ijodi “katta o‘g‘riqlar, katta quvonchlar, katta inkor va katta e‘tiroflar” bilan rang-barang ekanligi tilga olinadi. G.Matyoqubovani “o‘z ijodida ayol ruhiy olamini boricha yoritishda ba‘zi sarhadlarni ijobiy ma‘noda “buzish”ga erishayotgan jasoratli ijodkor” deb hisoblaydi. Fikrlari isbotiga esa “Daryoga botayotgan quyosh”, “Ziyoga botayotgan daryo”, “Zulfiya” dostonlarini keltiradi. “Daryoga botayotgan quyosh”, dostonlarida xalqimiz tarixini faqat ijodkor ko‘zi bilan emas, farzand ko‘zi bilan ham ko‘radi. Agar e‘tibor bersak, T.Qaypbergenov fikrlari G.Matyoqubova ijodi yuzasidan ungacha bildirilgan fikrlarga juda yaqin, ularni yana bir bor tasdiqlaydi. Demak, she‘riyatida yurak dardlari, yurak quvonchlarini aks ettirishni bosh maqsadiga aylantirgan shoira lirikasiga munosabatda, lirikasiga xos ustivor jihatlarni iqrortishda adiblarimiz bir fikrda.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida ham G.Matyoqubova ijodi munosib baholangan. Taniqli olimlar, professional adabiyotshunos-tanqidchilar maqolalari taqrizlari, kitoblariga yozgan sózboshilarida shoira ijodiga xayrixohligini bildirishdi. Akademik J.Bozorboyev, fan doktorlari, professorlar Q.Maqsatov, K.Mambetov, S.Bahodirova, Q.Jarimbetov, Q.O`razimbetovlarning turli yillarda e`lon qilingan maqolalari, kitoblari va taqrizlarida shoira ijodiga nisbatan iliq fikrlar aytilgan. Jumladan, Q.Maqsatovning “Ulu`g jirov haqida poema” taqriz maqolasida, G.Matyoqubovaning “Jirov qalbi” dostoni tahlil etiladi. Asar Qurbonboy jirov xotirasiga bag`ishlangani, dostonda jirov obrazi ishonarli chiqqani ”muallif jirovning ózini, óy-hayollarini, armonlarini, dostonlarini, qóbiz kuylarini chuqur bilishi va buning barchasini she`riyat tili bilan ifodalab berishi” asarning katta yutu`gi deb baholanadi. Qoraqalpoq adabiyotida birinchi marta Qurbonboy jirov haqida shunday katta asar yozilgani, G.Matyoqubova ijodininggina emas, umum qoraqalpoq adabiyotining yutu`gi darajasidagi ish deb qaraladi.

Guliston Matyoqubovaning ijod yóli tó`grisida birmuncha kengroq ma`lumot beradigan yana bir ish bu K.Mambetovning “Tabiyat ham gózzalliq shaydasi” maqolasi. Maqola G.Matyoqubovaning qoraqalpoq tilidagi nashr etilgan “Intizarliq” (Nukus, 1995 y.) kitobiga sózboshi órnida kiritilgan. Muhimi, u shoira lirikasining óziga xosligi, mavzu rang-barangligi haqida tólaroq ma`lumot beradi. Yana bir ózgachaligi, boshqa maqolalarda uchramaydigan bir faktga muallif kóproq tóxtagan. Ya`ni shoira she`riyatida A.Pushkin, M.Lermontov, A.Bolk, A.Axmatova, shuningdek, ózbek adabiyotining U.Nosir, H.Olimjon, Zulfiya, Uy`gun, Mirtemir kabi shoirlar an`analari ta`siri borligi tó`grisida sóz yuritiladi. Bu fikr misollar bilan dalillanganida maqolaning ilmiy saviyasi, ahamiyati yanada oshgan bólaridi. Maqolaning e`tiborga sazavor jihatlaridan yana biri, shoira sonetlari tó`grisida yaxshi fikrlar bildiriladi. G.Matyoqubovaning qoraqalpoq adabiyotida ayollar obrazini yaratishdagi faolligi “Janna D,Ark”, “Guloyim” asarlari misolida

sharhlangani ham yangi fikr. Shoira lirikasida tabiat mavzusi yetakchi órinlardan birini egallashi haqidagi fikr ham maqolada to`g`ri ta`kidlangan. *“Gulistan tabiyat jirshisi, Gulistan qosiq jazba`gan mausum joq. Ásirese, Qaraqalpa`g`istanni`n qirsiq tabiyatına baylanisli har turli qosiqqlar jazadi”* - deganida ushbu óziga xoslikni nazarda tutgan bólsa kerak. Harholda, maqola ilmiy tahlildan kóra kóproq sharh, obzor xarakterida bólsa-da, G.Matyoqubova ijodining asosiy xususiyatlari haqida yaxshi tasavvur beradi.

Dostonlarga yondashuvda ózbek va qoraqalpoq olimlarining fikrlari deyarli mushtarak. J.Bozorboev ikki dostonni ham atroflicha tahlil qiladi. Mavzu doirasi va falsafiy asoslarini misollar bilan dalillaydi. Dostonlarda *“shoiraning yurak alangasi, kóngil kuylari, ishq harorati, muhabbat hasratlariing shu`lasi bayon qilinib, muhabbat tóla satrlar falsafa bilan yó`grilganini”*, bu insoniy kechinmalar *“daryo, quyosh, ziyo”* timsollarida nafis va teran tasvirlanganidan kóngli tólib yozadi. Ba`zi olimlarning dostonlardagi ayrim ramziy obrazlarni sharhlash fikrlariga qóshilmaydi. Masalan, u adabiyotshunos N.Xudoyberganovning *“Quyosh bu mehr, muhabbat, sevgi ishq timsoli sifatida kursatilgan”*, degan fikrini ma`qullaydiyu, tanqidchining *“Quyosh, ham, daryo, ham bir paytning ózida yorga, she`rga, tabiatga, hayotga mehr-muhabbat tuy`g`usini izhor qilish lahzalarini óz ichiga oladi”* degan fikrini inkor qiladi. Bu e`tirozlarda, qisman bólsa-da, asos bor. Quyosh bir vaqtning ózida bir necha kechinmalarning ramzi bólishi, lirik qahramonning ruhiyatini ifodalashi juda murakkab munozarali fikr.

Dostonda ishq-muhabbatdan tashqari ijtimoiy-falsafiy ma`no kasb etadigan vatanparvarlik, insoniylik, buyuk tarixiy shaxslarning “nido”lari, hikmatlari orqali dostonlar ruhiga singdirilgan boshqada mavzular mavjud. Bu ma`naviy-axloqiy kotegoriyalar talqinisiz dostonlarning mazmun-mohiyatini, muallifning badiiy-estetik tafakkur dunyosini, maqsadini anglash qiyin. Dostonlarning hozirgiday ramziy nomlanishi ichki mazmunga mos. Tanlangan mavzular, poetik ma`no asarlar nomida jamlangani, fikrimizcha, ózini oqlaydi.

G.Matyoqubova ijodi targ'ibotida, asarlarning ommalashishida taqriz janrining vositachiligi roli ham katta bo'lmoqda. Gap shundaki, shoira nashrdan chiqqan har bir yangi kitobini adabiyot muhlislari qizgin kutib oladi. Taqrizlar yoziladi, ilmiy tadqiqotlarda e'tirof etiladi. Bunday taqriz-maqolalar shoira ijodining etakchi tendenciyalari yuzasidan aytilib, yozilib yurgan fikrlarni qaysidir ma'noda to'ldiradi. G.Matyoqubovaning Toshkentda "Sharq" nashriyatida chop etilgan "Ota uyim" (2014) kitobi shoira ijodining ulkan yutu'gi bo'lganidek, o'zbek va qoraqalpoq adabiyoti ixlosmandlari uchun ham yaxshigina tuhfa edi. Rang-barang janrdagi asarlardan iborat bu to'plam mutaxassislar nazaridan chetda qolmadi. Matbuotda ijobiy fikrlar aytildi. Aslida xar ikki adabiyotda shoira ijodiga xayrixohlar, qo'llab-quvvatlovchi mualliflari ham O'zbekiston va Qoraqalpoqistonning gazeta-jurnallarida Guliston Matyoqubova ijodiga doir yigirmadan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar e'lon qildi. R.Rahmanova, G.Rahimova, Ya.Qochqorov, M.Ahmad, I.Dilmanov, N.Matyoqubova, F.Sapaeva, Sh.Razzaqova, M.Yusupova, Yu.Berdiev, R.Siddiqova, Sh.Umarova, O'.Embergenov kabi o'zbek ijodkorlari, G.Esemuratova, S.Bahodirova, N.Toreshova, F.Mirzaboeva, G.Davletova, Sh.Payzullaeva, A. O'teniyazovadek qoraqalpoq ijod ahli va ziyolilarining G.Matyoqubova she'riyati, adabiy-badiiy iste'dodi jamoat arbobi sifatidagi faoliyati qalamga olinib, matbuotga bosilgan maqolalar, suhbatlar, e'tiroflar ham borki, ular ham shoira ijodiga nisbatan bildirilgan ilmiy fikrlarning muhim bir shahobchasidir. Biz sanagan nomlarning hammasi ham ijodkor yoki olim emas. Ular orasida boshqa soha xodimlari, hatto siyosatchilar ham bor. Biroq ularning fikrlari ham G.Matyoqubovaning ijodiy salohiyatini, ijtimoiy faoliyatini to'laroq idrok etishda ahamiyatli bo'lgani bois ularni ham tilga olmoqdamiz. Mavzuga tegishli fikrlarni yakunlashdan oldin shoira ijodi bilan bog'liq yana bir faktni ochig'i chetlab o'tgimiz kelmadi. Odatda, shunday ijodkorlar bo'ladimi, ular shoir va yozuvchilar, mutaxassislar, olimlar nazaridan tashqari, boshqa ijod ahllari e'tiborida ham bo'ladi. Ko'pchilik hurmatini qozongan bunday nomdor insonlarga

munosabatini ular bag'ishlov she'rlari orqali bildirishadi. Va shu yo'l bilan u yoki bu ijodkor shaxsi, talanti va shaxsiyatiga iste'dodiga hurmatni izhor qiladi.

G.Matyoqubova she'riyati, iste'dodi jilolari, el-yurt, zamondoshlari mavzusi, Vatan obrazi talqinidagi rang-baranglik va betakrorlik xususiyatlari shoira saltanatini bezab turgan gozal fazilatlaridir.

G.Matyoqubovaning adabiyotimiz, ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi ibratli ishlari, jonkuyarligi ta'riflangan bag'ishlovlar anchagina. Har birida shoira insoniy qiyofasi, yuqori madaniyati, ijodiy faolligi va talanti, davrimizning eng ilg'or ziyolilari safida turishi faxr bilan aytiladi, yoziladi.

Shoira ijodi yuzasidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, quyidagi xulosani aytgimiz keladi. G.Matyoqubova serqirra ijodkor. *“Solmas ruhiy gullari-she'rlari bilan oz bostonini yaratgan”*, (B.Nazarov) shoira, *“haqqoniy sozlarini baralla ayta olgan jasur jurnalist”* (Zulfiya) dramaturgiyada ham kuch sinab, muhlislar nazariga tushgan, mushohada ufqi keng, tuyg'ularga boy” (N.Xudoyberganov) qalam sohibasidir.

Tahlilga tortilgan xar bir maqola shu fikr bilan yogrigan desak, xato bolmadi. Chinakam iste'dodlargina bunday ta'rifga munosib korilishini hisobga olsak, ***“Guliston Matyoqubova adabiyotdan baxt topgan ijodkorlardan biri” – deya e'tirof etganlarida Ustoz K.Quramboyev haqlidirlar.***

II BOB. SHOIRA LIRIKASIDA MILLIYLIK, TARIXIY SHAXSLAR, TASVIR RUHIYATI TABDILI

2.1. Xalqona ohang va ko'ngil istaklari badiiy talqini

Mazmun-mohiyatga ko'ra nafis so'z san'ati vujudga kelgan ko'hna zamonlardan beri lirika olam bilan odamni badiiy-estetik o'rganishdagi ingichka salohiyati bilan badiiy madaniyatimiz tarixida salmoqli o'rin tutadi. Lirika hissiy nafosati, fikriy teranligi bois, adabiyot boshqa turlari silsilasida nufuzi o'zgacha. U olam bilan odam yuragini zabt etgan kechinmalar-u mushohadalar uyg'unligida yuzaga kelgan obyektiv mohiyati bilan go'zal.

Shu bois, *Guliston Matyaqubova she'riyatini xalqimiz ma'naviy hayoti, shaxs fikriy-hissiy kamoloti, millat ijtimoiy-madaniy takomilida milliylik, tarixiy siymolar, tasvir ruhiyati tabdilisiz tasavvur etish qiyin*. Shoira she'riyatida ham mazkur yorug' xususiyatlar, xususan, *xalqona ohang* ustuvor.

Badiiy tafakkur tabiatidagi sifat o'zgarishlari o'ziga xos badiiy shakllar va ifoda usullari xilma-xilligini taqozo etadi. Har bir avlod shoirlari obrazlar tizimi bir-biriga o'xshamaganidek so'z san'atkorlari lirik qahramonlari ham har bir she'rda betakror yo'sinda fikrlaydi. Joriy holat har bir ijodkor avlodi badiiyat tarixidagi o'zlik qiyofasini belgilab berish barobarida, shoirlar individual dunyosini ham tayin etadi. Olam sir-sinoatlari, inson ruhiyati turfa iqlimlarini goh samo, gohida quyosh, goho munis va mehribon ona timsolida teran idrok etish borasida Guliston Matyaqubova tinimsiz badiiy izlanishlar olib boradi:

Osmon qora tortib, tumanlar izgib,

Yurgan kechalarda dardlarim qolgan.

Xato-pushaymonlar, yurakka botib,

Sodda oylarimning, tinchini olgan.

Dostim mening,

Men korgan tonglarning, bir yanog'i oq,

Bir yanógi qora yovuzliklardan.

Munis bir onaning, farzand doǵidan,

Qon bólgan jigari, ming tilka pora yovuzliklardan... (22.10-b.)

E'tibor bering, *Men kórgan tonglarning, bir yanógi oq - bir yanógi qora yovuzliklardan* bir inson-qahramon o'z xayol va tashvishlariga muvofiqlashgan. *Tonglarning, bir yanógi oq - bir yanógi qora* uning serǵam, dardkash tashvishlari, gullashga shay turgan orzulari, armonlari. Uning orzulari real muhitda u izlagan, ko'zlagan maqsadlarning haqiqatiga aylanadi. Tong, aniqrog'i, shoirani o'rab turgan jamiyatda ikki toifa "oq yoki qora, ezgulik yo yovuzlik" uning shaxsiy individual óy-mushohadalar mevasi. Har bir tong uning bir orzusi, bir baxti nishonasi. Insonning orzu-armonlari romantik dunyoning hadsiz ummonlari kabi chek bilmas baxt eshiklarini ochar ekan, dunyo muallif xayolida yaxlit oqimga aylanadi va bu oqim tong otishi, quyoshning yorqin yo tutun nurlari bilan inson takomilida mujassam bólishini yurak-yuragidan ótkazib yozgan gaplarim deya ta'sirlanadi. Dóst bólib, ona bólib, quyosh bólib havo kabi, osmon kabi, shamol kabi butun borliqni qoplaydi, baxt dunyosini yaratadi. Olamda baxt insonning o'z hayotidan ma'no-mohiyat, eng muhimi, qanoat, qoniqish topishligidadir. Baxtiyor insonga hayotning, borliqning har bir manzarasi go'zal ko'rinadi. Muntazam va muttasil baxt inson o'z hayotidan roziligi hamda barcha imkoniyatlari kengayishidan iborat.

Yuqoridagi germenevtik tahlil bayt orqali insonda tabiat va inson yolqini vositasida ochiladigan she'r germenevtik sharoiti bir tavsifi. Bu kabi tavsifni globalashtirish orqali umuminsoniy yoki individual inson borliq va jamiyat haqidagi falsafasi ko'rinishi sifatida talqin qilish mumkin. She'rning keyingi misralari germenevtik tavsifiga e'tibor beraylik. Yuqorida dóstiga murojaat motivlarining o'ziyoq shoirida va o'quvchida ranglar, sifatlashlar tabiatning gullashi ramzi sifatida talqin qilingan bo'lsa, keyingi misralarda bu baxtning poetik ranglari tovlanishi birma-bir ochib berilmoqda.

Badiiy asar tabiatida ijodkor ichki dunyosi namoyon bo‘lar ekan, bu hodisa asar matni shakl imkoniyatlari orqali semantik spektrlar yaratishi tabiiy. V.Gumboldt fikriga ko‘ra: “Tilning vazifasi inson aqliy faoliyatini materiallashtirishdan iborat”. Shunday ekan, badiiy matn dekorativ arxitektonikasi ham o‘ziga xos g‘oya tashishi aniq. Ijodkor asar uchun tanlangan material imkoniyati, g‘oyasi va mo‘ljalidan kelib chiqib, asar badiiy tafakkurini ramkaga soladi yoki badiiy asarning fasadini yaratadi. Aynan mana shu ramkalashtirish asar janri, shaklini yaratadi, binobarin, asar tilini ham shakllantiradi, asarning umumiy ko‘rinishi uchun so‘z material vazifasini bajaradi. She’rning vazn, qofiya, turoq, rifm, ritm, band kabi fasad elementlari uning spetsifikasini tashkil qiladi. Spetsifika asar g‘oyasiga mos ravishda ma’lum lisoniy-g‘oyaviy maydonda namoyon bo‘lar ekan, uning o‘zi ham g‘oya tashiydi. Badiiy tilning mana shu munosabatlarini ochib berish badiiy asarning dekorativ til xususiyatlari zahirida yotadi. Badiiy asar namunasi dekorativ tabiati, ya’ni, uning adabiy tur, janr, uslub (metod), mavzu, motiv, xarakter, yo‘nalish kabi qator tashqi va ichki faktorlari asarning ma’lum g‘oyaviy holat tashishi uchun y’nalish belgilaydi. Badiiy asar, she’rning tashiyotgan g‘oyasi uning yuqoridagi xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Biroq ularni to‘g‘ri tushunib olish uchun, masalaning mohiyatini to‘g‘ri belgilash uchun nafaqat ijodkor, balki bevosita y’quvchi ham badiiy tilning aynan shu normativlaridan, ya’ni, asar mavzusi bilan bog‘liq xususiyatlardan xabardor b’ylishi zarur. Bu borada, G.O.Vinokurning fikrlari muhim o‘rin tutadi: “Adabiy asar nafaqat badiiy tilning ifodasi, balki tilda aks etgan o‘y-fikr va hissiyot ham ijtimoiy ifodasi sanaladi”.

Har bir ijodkor badiiy konsepsiyasi falsafiy takomili voqelikni poetik idrok etish o‘ziga xosligi bilan o‘lchanadi. Mavjud o‘lcham hodisot ijtimoiy-ruhiy, milliy umuminsoniy-jihatlar qamrovi, sharoit taqozosi va xarakter tadriji amaliy ishlanmasi teranligi, tasvir miqyosi – tahlil malakasi – talqin muqarrarligi sinteziga payvandlanadi. Zotan, nazmda shakl, mazmun va uslub

markazlashuvini ta'minlaydigan yetakchi omil – lirik kechim zalvori ustuvorlashadi. To'g'rirog'i, tasavvur barqarorligini tayin etishda dunyoqarash tig'izlashuvi muhim o'rin egallaydi. Ayni paytda, badiiy shakl taraqqiyoti ham ichki, ham tashqi mazmunni uyushtiradigan estetik salmoq ifoda yo'sini ijodiy mustaqilligiga tutashadi. Shu nuqtayi nazardan, har bir adabiy talqin ham matn badiiy voqeligi, ham ijodkor fitratiga yo'l ochadi. Shartli raqobatbardosh ob'ektiv mohiyat (shoira dunyoqarashi va real manzara bir-biriga o'tishi) mahoratga bog'lam yaratadi.

Shu o'rinda Guliston Matyoqubova she'riyatining nainki mazmun, g'oya va shakl teranligi, balki ohang, uslub, poetik oqim jihatidan ham nihoyatda rang-barang ekanini aytmasdan o'tish mumkin emas. Nazarimizda, hozirgacha biz shoira asarlarining, she'rlarining, asosan, matnidagina ko'rinib turgan mahoratni yoritishga, ochishga ko'proq e'tibor berib keldik. Holbuki, muallif qator, hatto, aksar she'rlari shunday xususiyatga, o'ziga xoslikka egaki, ularda ayrim asosiy fikr, asosiy g'oya va maqsad asarning matnida, uning yuzida ko'rinib turgandan ko'ra, ko'proq zamiriga, qatlamlariga yashiringan, gohida esa, hatto chirmab tashlangan bo'ladi,¹ - yozadi hassos munaqqid A.Rasulov. Darhaqiqat, shoira badiiy talqinida ijod falsafasi teranligi sodda va zalvorli fikriy umumlashmalar hosil qilish barobarida oshkora va yashirin tasvir qatlamlarini ham markazlashtiradi. Ko'ngil sarzanishlari orqali millat kechmishi, inson ibtidosi va intihosi, hayot murakkabliklarini suvratlashga muvaffaq bo'ladigan poetik idrok takomilida bashariyat ma'naviy-axloqiy mezonlari ijodiy tahlillanadi.

Ijodkor mudom harakatdagi tafakkurida kurtak ochgan badiiy fikr o'ziga xos halqasini tashkil qiluvchi muayyan obrazda estetik nigoh, lirik harorat mujassam. Shu bois ham unga real hayot bilan aynanlik maqomini berish mumkin emas. Illo badiiy haqiqat hayot haqiqati bo'lmay, ong va tuyg'u – ruhoniylar nazar ifodasining uyg'unligidan hosil bo'luvchi go'zallik sifatida

¹ Ўзбек адабий танқиди. –Т.: Турон-Иқбол, 2011. –Б. 319.

matnga tayanib, ijodkor mikroolamiga kechinmadoshlik orqali poetik idrok etiladi¹, - yozadi adabiyotshunos I.Y.Oqubov. Darhaqiqat, ijod olami o'ziga xosligi poetik idrok mohiyatidan oziqlanadi. To'g'rirog'i, ijtimoiy-ruhiy, milliy umuminsoniy jihatlar qamrovi sharoit taqozosi va xarakter amaliy ishlanganlik darajasi ichki ziddiyati, tasvir miqyosi – tahlil malakasi – talqin muqarrarligi sintezi bilan izohlanadi. Binobarin, she'riy tabdilda shakl, mazmun va uslub markazlashuvini ta'minlaydigan asosiy tushuncha dunyoqarash zichligiga tutashadi. Ayni paytda, badiiy shakl taraqqiyoti ham ichki, ham tashqi mohiyatini uyushtiradigan estetik salmoq ifoda yo'sini ijodiy mustaqilligini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, har bir adabiy talqin ham asar badiiy voqeligi, ham ijodkor fitratiga yo'l ochadi. Subyektiv mohiyat (ijodkor dunyoqarashi) va obyektiv voqelik (materiya) ijodiy bog'lam hosil qiladi.

G.Matyoqubovning keyingi yillar lirikasi, xususan, she'rlar turkumi izlanishlarida badiiy ma'no, ohorli salmog'i bilan e'tiborga sazovor. Agar birgina she'rini oladigan bo'lsak, ma'naviy-axloqiy, aqliy yetuklik jamiyatlarni yuksaltiradi, ko'ngillarni tozartiradi, elatlarni qadrdonlashtiradi, qadrlar sha'nini yuksaltiradi, degan fikr ustuvor. Ramzlarga, taxayyulli tafakkur uyg'otgan timsollar asosiga qurilgan she'riyatining yigirmanchi asr ikkinchi yarmi – yigirma birinchi asr boshlari lirikamiz janrlari va poetik shakllar tarixini yaratishdagi ahamiyati nufuzlidir. Shoira so'nggi yillar lirikasi samarali izlanishlar namunasidir. Ko'ngil hurriyati, tuyg'ular erki kabi yuksak intellektual qadriyatlarni himoya qilishiga ko'ra, shoira aabiy talqini badiiy-estetik qimmat kasb etadi.

Tuyg'u va kechinma aloqalantirilgan mohiyati aslida o'quvchini ham shaxsiyat, ham jamiyat tutumi ziddiyatlarini anglash va qayta baholashga o'rgatadi. Ifoda qo'llanmasi aniqligi va tasvir ruhiyati yorqinligi tasavvur, tajriba hamda dunyoqarash zichligini ta'minlaydi. Shu boisdan, matnda shoir botinini band etgan tushuncha tabiiy mohiyat kasb etadi. Kitobxon tasavvurini

¹ Ёқубов И. Бадий-эстетик сўз сехри. –Т.: «ТДПУ». 2011. –Б. 252.

uyg‘otishga yo‘naltirilgan lirik tabdilda romantik ohang kuzatilsa-da, tafsilotlar intihosini berishdan muddao – aynan voqelikka munosabatdan hosil bo‘lgan tuyg‘uni ifodalashdan iboratdir.

“Mahoratni egallash uzluksiz davom etadigan jarayondir. Yozuvchi o‘z ijodining ma‘lum davrida – usta san‘atkor darajasiga ko‘tarilishi mumkin. Agar u shu bilan cheklansa, badiiy mahoratini o‘stirmasa – hayotdan va san‘atdan o‘rganishda davom etmasa u orqaga ketaveradi, o‘quvchilari soni kamayaveradi. Demak, o‘rganish, kashf etish to‘xtagan joyda iste‘dod kuchi, ta‘siri susaya boshlaydi”¹. Darvoqe, munaqqid e‘tiborni «kashf etish, o‘rganish»ga qaratadi. Biz bu fikr-mulohazadan shuni anglash mumkin, yillar davomida yig‘ilgan ijodiy izlanish va tajriba “kun”i kelib tashqariga chiqsa, ana shundagina yuksak did va mahorat bilan bitilgan badiiy javhar tug‘ilishi mumkinligiga iqror bo‘lamiz. Biroq haqiqiy iste‘dod ko‘lami qay darajada kamyob hodisa bo‘lsa, yaxshi she‘r ham shunchalik ehtiyoj hosil kiladi.

Professor N.Karimov ta‘kidlashicha, «She‘r o‘zicha organizm bo‘lsa, so‘z uning hujayrasidir. Organizm tirik bo‘lishi uchun uning har bir hujayrasi sog‘lom bo‘lishi va nafas olib turishi lozim bo‘lganidek, har bir so‘z ham she‘rga uning qalbi bo‘lgan obrazga o‘z qonini berib turishi va uni harakatga keltirishi kerak». Shuni alohida ravishda ta‘kidlash joiz, badiiy fikr mohiyatidan kelib chiqib, tanlab, saralab, ishlatilgan poetik so‘zgina fikrni yorqinlashtiradi. Unga yorqin poetik so‘zgina asos bo‘lishi mumkin.

Demak, poetik obraz ramziy ma‘no anglatuvchi badiiy so‘zlar qatlami va so‘zning xilma-xil ma‘nolarini yuzaga keltirish usullari bilan, boshqacha qilib aytganda, poetik so‘zning badiiy mushohada maydonidagi faoliyati jarayonida yaratiladi. Badiiy obrazlarga asos bo‘lgan poetik so‘zlarning paydo bo‘lishi va poetik shaklga kirishi muayyan hayotiy jarayon mahsuli.

Poetik obraz g‘oyat serqirra va mazmundor badiiy qurilma bo‘lib, she‘rning g‘oyaviy va ruhiy qudratini o‘zida mujassamlashtirgan estetik

¹ Умуров Х. Бадийий ижод асослари. –Т.: «Ўзбекистон», 2001. 41-бет.

markazdir. Shoir aytmoqchi bo‘lgan badiiy fikr u qo‘llagan so‘zlar sehri ham ana shu poetik obraz bag‘riga yashiringandir. Chunki poetik «obrazning yorqinligi, hayotiyliigi, o‘ziga xosligi ham shoir dunyoqarashi chuqurligiga, estetik idealining mukammal shakllanishiga bog‘liq»². Poetik obrazdan foydalanishda badiiy fikrning mantiqiy taraqqiyotini ta‘minlash, obraz va tabiatdan olingan obyekt mutanosibligiga erishish tasvirlanayotgan olamni tabiiy ranglarda ko‘rishga intilish mahorat belgisidir.

Ma‘lumki, muayyan tabiat hodisasi yoki narsalar haqida bir necha shoir she‘r yozishi, har qaysi o‘z badiiy mezonlari darajasida poetik obraz yaratishi mumkin. Ana shu poetik mahorat individualligi mahsuli o‘laroq Guliston Matyoqubova she‘riyatida xalq dardi, olam, odam, hayot haqiqati, ona, do‘st, tuproq, tog‘, yomg‘ir, shamol, qor, tuman, bulut, ohu, chumchuq, chumoli, yaproq, yulduz, quyosh, oy, qish, kuz, bahor, yoz kabi serma‘no va serqatlam poetik obrazlar tizimi voqelikni poetik baholashda ochqichdir:

Odam o‘g‘li bir gul, dunyo keng chorbog‘

Hoyu-havaslarini tuta bilmaslar,

Inson boshi bir tosh, dunyo baland tog‘

Har qadam ming gunoh o‘ta bilmaslar.

Dunyoni do‘st tutding, do‘sting qayerda,

Taqdir bichdi, qiydi do‘sti qayerda.

Dunyo yolg‘on deding, rosti qayerda

Bu olam siriga yeta bilmaslar...³

Shoir yaratayotgan obrazlariga katta ijtimoiy vazifa yuklaydi. Bu insonlar diliga chirmovuqday o‘ralayotgan xudbinlikning sotsial oqibatlari haqidagi tashvishli dard azobida o‘rtanish. Bir vaqtlar o‘z saxiyliigi, mehmondo‘stligi bilan mashhur bo‘lgan yurtimizda mol-dunyo, xayr-ehson,

² Мамажонов С. Лирик олам, эпик кўлам.-Тошкент. 1979, 28-бет.

³ G.Matyoqubova “Qaytmoq uchun ketmoqdaman”, Nukus “Qoqaqalpog‘iston”, 2007-y. 31-бет.

muruvvat va mehribonlik tushunchalari o'z ma'nosini yo'qotgan davrlar bo'ldi, mol-mulkka hirs qo'yish odamlarni xudbinlashtirib yubordi. Shoir kishilarni daraxtlar misol saxiy bo'lishga chaqiradi, chunki birovlariga yaxshilik qilish, hamisha el-ulus uchun yashash boqiylik garovidir. Insonning e'zozlanishiga sabab ham ana shunda. Shu bois shoir «*Dunyo yolg'on deding, rosti qayerda*», «*Bu olam siriga yeta bilmaslar*», «*Odam o'g'li bir gul, dunyo keng chorbog'*» deya tasviriy-falsafiy mushohadakorlikka chorlaydi. Dunyo obrazi o'z poetik evolyusiyasi natijasida katta falsafiy mazmun kasb etadigan badiiy tushuncha-timsol-obraz unsuriga aylangan.

Dunyo obraziga ijtimoiy-falsafiy mazmun yuklanishi natijasida uning semantik qiyofasi tiniqlashadi, ya'ni ma'no nozikliklari – ramziy talqinlar yuzaga keladi. Lirikamiz taraqqiyoti davomida daraxt inson tabiatini badiiy talqin qilish vositasi, uning o'y-xayollarini o'rganish va tushunish omiliga aylandi. «Dunyoning bir unsuri bo'lgan “ho'yu-havaslarini tuta bilmaslar” she'rga, san'atga ko'chib o'tgach, lirik qahramonning muayyan psixologik holati va kayfiyatini u yoki bu davr odamlarining idealini, qiziqishi va intilishlarini real aks ettirishi bilan e'tiborli».² Umuman, bu olam siriga yeta bilmaslar... obrazli talqin zamirida qanday poetik mazmun yashiringan.

Poetik obraz she'riy asar badiiy qurilmasining asosiy unsuri hisoblanadi. Tabiat hayotini poetik obrazlar ijodkor olam go'zalliklari haqidagi qarashlariga salmoqli ijtimoiy fon berishi asosida yuzaga keladi. Har bir poetik obraz orqali ijodkorning pozitsiyasi, estetik dunyosi, qalamining qudrati-mahorati, olam va odam dardlari to'g'risidagi mulohazalarni, moddiy olamni badiiy idrok etish iqtidori haqida mukammal ma'lumotlarni bilib olish mumkin. Har bir poetik obraz – voqelikning tabiiy chizilgan lavhalaridir. Xususan, quyosh obrazi butun borliqqa o'zining nurlarini sochib, undagi barcha mavjudotni uyg'otuvchi, dunyoning sirlarini ochib beruvchi buyuk kuch, ezgulik, nur va hayotbaxsh ulug'vorlikning bokira timsoli bo'lsa, ariqlarda jildirab oqqan suv-suv emas,

² Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. –Т.: 1984. –Б. 48.

balki insonning hayot yo‘li, o‘tib ketgan, ammo iziga qaytarib bo‘lmas vaqt timsolidir. Ko‘rinadiki, har bir poetik obraz o‘zining tabiiy chizgilari fonida insonlashtiriladi, shoir tabiatdan olingan so‘z - obraz, lavha – obrazlar orqali lirik qahramon kechinmalarini, ruhiy holatini ifodalaydi. Har bir ijodkor tabiatga o‘z ijodiy mezonlari bo‘yicha nazar tashlaydi. Shu bois muayyan an’anaviy obraz har bir shoir ijodida tamomila original ma’nolarda sado beradi. Masalan, *dunyoning tunganmas armoni...*, *oq bilan qoraning órgatdi farqin...* obrazli talqinlar ana shunday ijodiy individuallikning yorqin namunasi, *qolaversa xalqona ohangning gózal namunasi deyish mumkin:*

Kulfatu azoblar, xato pushaymon,

Kabi kópdir hali anglamaganim.

Bu chala dunyoning tunganmas armon,

Cheksiz umidlarin tinglamaganim.

Bugun meni sergak, hushyor torttirdi,

Oq bilan qoraning órgatdi farqin,

Shundan Dóstim, deya faqat ózingga,

Kónglim ochayapman jafokash xalqim... (37.12-b.)

Guliston Matyoqubova beixtiyor «*Kónglim ochayapman jafokash xalqim...*» - deydi. U inson umrining, poyonsiz sarhadlarida yashiringan shirin istiqbolni oq rangga o‘xshatib, baxtning olisdan imlashi-yu insonning unga intilishi bilan muayyan uyg‘unlikni ko‘radi. Demak, ijodkor she’riyatidagi poetik obrazlar bir necha zohiriy va botiniy ma’nolarni ifodalaydi. Tabiat lavhalari va obrazlarini bunchalik tiniq, aniq va muxtasar tasavvur qilish, avvalo, olam go‘zalliklarini shoirona o‘qish, tabiat poeziyasining inson ruhiyati bilan aloqalarini nozik his etish va inson his-tuyg‘ularini san’atkorona ifodalab berish natijasidir. Bu poetik obrazlar tabiat va jamiyat mohiyatini, davrning dolzarb muammolarini, kishilar ruhiyatini, hayot haqiqati va ijtimoiy masalalarni haqqoniy ifodalab bera olganliklari bilan qimmatlidir.

O‘zbek she’riyatida ona Vatanimiz - O‘zbekiston tabiati o‘ziga xos badiiy qomusi yaratilgan bo‘lib, unda tabiatni poetik idrok etish, uning qonuniyatlarini badiiy tadqiq etish orqali tabiat estetik mohiyatiga poetik shakl berish va tabiat hodisalarini badiiy vosita sifatida o‘zlashtirish usullari, tabiatni tasvirlashning estetik mezonlari va badiiy andozalari, poetik tabiatnomaning etakchi motiv va mavzulari, manzara lirikasining tasnifi va obrazlar silsilasi o‘z ifodasini topgan. Ijodkor olamdagi narsa va hodisalarni badiiy o‘zlashtirish natijasida tabiatning poetik obrazini yaratdi.

Shoira she’rlarining o‘ziga xos tomoni shundaki, unda so‘zga yuklatilgan ruhiyat turli xil siymolarda o‘quvchi ong-shuurida gavgaldanadi, shuningdek, so‘z va matn intizomi nutqda mushohada o‘zgarishlari hosilasi sifatida maydonga keladi. “Badiiy asardagi hayot so‘z vositasida yaratilar ekan, badiiy til bevosita real fikr va hissiyotning obrazli ifodasidir. Har qanday so‘z kontekstda (boshqa so‘zlar bilan aloqaga kirishganda) hayotiyligini, o‘zining hususiyatini, rangini hidini, ohangini ko‘rsata oladi”¹. Shoira she’rlarini mutolaa va tahlil qilish davomida uning ana shu tomonlama yuksalganiga guvoh bo‘lamiz. So‘zning badiiy salohiyatini shu tahlid shoirona anglatishga erishgan. Aynan ijodkor fitrati timsoliy-nutqiy yahlitlikni matn, lug‘aviy-grammatik intizom hamda ma’no tarmog‘i kengayishini so‘zda uyushtiradi. «Bunda u uch narsaga – xayoldagi inson ideali, o‘z ichki dunyosi va ijtimoiy guruh haqidagi o‘z tasavvuriga tayanadi. Qarshisidagi odamni shu uch unsur bilan muqoyasa qilish orqali tasavvur hosil qiladi. Ko‘pincha tasavvur hosil bo‘lishida ilk taassurot (ideal bilan muqoyasaning hosilasi sifatida yuzaga kelgan simpatiya yoxud antipatiya) asos vazifasini o‘taydi»². Muallif inson haqidagi dastlabki tasavvurni tasdiqlash yoki rad etish uchun uni obyekt darajasiga ko‘taradi. Tasvir obyekt bilan taassurot ko‘lami orasidagi bog‘lam ijodiy individuallikni belgilaydi. “She’rni she’r maqomiga

¹ Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot. –T.: 2012. –B. 67.

² Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. –Т.: Шарқ, 2007. –Б.163.

yetkazadigan ilohiy, majoziy, lisoniy, ma'naviy va mazmuniy qudrat So'z va so'z bag'ridagi ma'nidir. Ma'ni deganda, shoir tomonidan So'z, so'z birikmasi va gapga yuklangan salohiyat, mazmun, qiyos, qudrat, mayl, zavq, tabiiylik va misraviy uyg'unlik anglanadi"¹. Shoir so'z sehrini his etgan holda satrlarni bezar ekan, undagi tasvir va ifoda bir-biridan ajralmas yaxlid bir bitunlikka aylanadi.

¹ Nafasov T. She'ring ham shoirning ham unvoni – so'z // Postda, 2010 yil, 15 may.

2.2. Turkum dostonlarida milliy kolorit va tarixiy shaxslar tajassumi

Istiqlol davri ruhiyatida poetik idrok yangilanishi, alxusus, she'riy talqinda xalqona ohang va ko'ngil istaklarini boricha real baholash muayyan o'rin egalladi. Millat ma'naviyati va ma'rifati silsilasida shakllanayozgan mustaqillik bosqichi o'zbek nazmida estetik mezonlar tub islohoti jarayon tusini oldi. Zotan, anglash hamda baholash tizimi mavjud andozalar inqirozi, tafakkur sinishi va dunyoqarash o'zgarishiga mustahkam zamin hozirladi.

Guliston Matyoqubova she'riyatida, ayniqsa turkum dostonlarida rang-barang jilolar ila kashf etilgan tarixiy shaxslarga murojaat, inson ruhiyati, hissiyoti, ko'ngli butun ziddiyatlari bilan badiiy talqin qilinganini kórishimiz mumkin.

*Ellikqal`a yoqdan esgan shamollar,
Oqchakól suvida oqib boradir,
Ming yillar qatida qolgan xayollar,
Bóston boǵlariga boqib beradir. (37.23-b.)*

Shoira ona tabiatdan jamiyatga xos xususiyatlarni axtaradi, uni o'z hayoti, o'y-kechinmalari bilan bo'ylashtiradi. Shu bois uning she'riyatida tabiat yoki tarixiylik, milliylik, ruhiy kolorit shunchaki tasvirlanmaydi, balki bu tasvir asosida tabiatni badiiy hodisa sifatida his etayotgan ijodkorning muayyan falsafiy-estetik qarashlari yotadi. Hayot murakkabliklari, odamlar dunyoqarashidagi uyg'oq tuyg'ular tabiat hodisalari misolida xulosa chiqarish, tabiat go'zalliklarini, milliyligimizni badiiy idrok etish fonida falsafiy mushohada yuritish shoiraning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Undagi go'zalliklardan bahramand bo'lish orqali badiiy tafakkur teranligiga intilish poetik fikr taraqqiyotining qadimgi bosqichlaridayoq tarkib topgan va adabiy ijodning tarixiy-tadrijiy rivoji davomida an'anaviy qoidaga aylangan estetik mezonlardan biridir. Bilamizki, ana shunday badiiy mezonlar hozirgi o'zbek

shoirlari mahoratini o‘stirib, ular yaratgan tabiat, tarixiy qal`alar shukuhi, milliylikka ehtirom tuyg‘ulari latofatli chiqishiga asos bo‘lgan.

Guldirinda ruhlar chiqib qafasdan,

Qirqqiz matonatin eslab havaslab.

Qaldirgochlar Qavat qal`ada pastlab

Yangi inga chóplar tashib boradir. (37.23-b.)

Aslida XX asr 90-yillar avvalida bo‘y ko‘rsatgan o‘zgarishlar ba’zi qirralari 60-yillarda ko‘zga tashlanib, 80-yillarda barqarorlashgan edi. Biroq adabiy tizimga xos xususiyatlar 90-yillar o‘rtalaridagina yaxlit ijod falsafasiga evrildi. Ayni paytda, istiqlol davri adabiyoti, xususan, o‘zbek lirikasi asriy millat an’analari mantiqiy davomi va takomili hisoblanadi. Vaholanki, u oddiy xronologik bosqich bo‘lmay, jiddiy o‘zgara boshlagan milliy-badiiy ong, yangilanayotgan estetik tafakkur hosilasi. U yagona hukmron mafkura tazyiqidan qutulayozgan, borliqni rang-barang miqyos va nisbatlarda anglash, izohlash hamda ifodalash imkoniga ega bo‘lgan millat ijodiy dahosi samarasi sifatida maydonga keldi. Adabiyot hukmron mafkura tazyiqidan xalos bo‘lishi olam va odam ruhiyatiga mansub hodisalarga turli rakurslarda qarash va ifodalash imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

Inson o‘zgardi. Davr o‘zgardi. Bu o‘zgarish badiiy ijod, xususan she’riyatda ham turfa o‘zgarishlar bo‘y ko‘rsatishiga zamin hozirladi. Negaki, shu choqqacha bo‘lgan she’riyatdagi evrilishlar bugungi kungidan ham anchayin farqlanadi. Buni shoira she’riyati timsolida ko‘rish mumkin.

Xayr XX asr!

Xalqim nafrati,

Mustabidlik, qullik, sen bilan ketdi.

“Ulu‘g o‘ga”larning soxta muruvvati,

Xotimangda sindi, emrildi, bitdi...

Assalom yangi Asr

Salom ming yillik,

Assalom Vatanning yangi kitobi

Birinchi sahifa:

Erk, Mustaqillik!

Buyuk kelajakning Ozod Oftobi. (37.101-b.)

Yangilanayotgan badiiy tafakkurga o‘z hissasini qo‘shayotgan ijodkorki bor, o‘z tabiati nimalarga qodirligini, kuchli va ojiz tomonlarini tarjima qilishdan sira charchamayaptilar. Buni boshqacha izohlaydigan bo‘lsak, masalaga jiddiy yondoshish zarur ham. Binobarin, ilm ahli, xususan lirikani teran tahlil qilayotgan adabiyotshunoslar nigohida jilvalanayotgan “so‘z san’ati” borliqdagi narsa-hodisalarni insoniyatning buguni darajasidan turib tahlil qilishi biz idroklayotgan muammoga oydinlik kiritishi tabiiy. Zero, yangi ruh va kayfiyat barcha zamonlarda inson badiiy tafakkuri darajasida, shuningdek, o‘zi anglagan miqyoslarda aks etishida ayonlashadi.

So‘z qudrati cheksiz. Shoira kim va nima haqida yozishidan qat’i nazar, botinidagi “dard”ni kuylaydi. Dard degani ijtimoiy yoki subyektivlik kasb etadimi, bu ijodkorning o‘z ishi. Lekin shunday haqiqat mavjudki, shoir hamisha uyg‘oq vijdon bilan ish ko‘rishga, ijod qilishga mas’ul va mahkumdir. Binobarin, shunday qilmasa agar yozganlari ruhsiz va tussiz, aks-sadosiz, e’tiborsiz qolaveradi. Yangilanayotgan badiiy tafakkur tadriji har qachongidan jiddiy tafovutlanadi. Xo‘sh? Bu aynan nimalarda ko‘rinadi degan haqli savol tug‘ilishi tabiiy, albatta. Chunki yaqin yigirma yillik har bir sohani mislsiz darajada o‘zgartirib yubordi. Badiiy adabiyotda yangicha an’analar bo‘y ko‘rsatdi. Bu birinchisi, ikkinchisi esa zamondosh inson barcha mayda-maishiy mavzularni yig‘ishtirib – o‘z ko‘ngliga e’tibor qaratdi. O‘z ko‘ngil orzusi-yu, armoni, yetolmay qolgan muhabbati-yu ilohiy mujdasi bugungi she’riyat, ayniqsa Guliston Matyoqubova ijodi tub va o‘zak asosini tayin etadi. Ijodkor ana shu yo‘lda xos iste’dod qirralarini namoyon etmoqda. Bu borada katta avlod talqinlarida jiddiy fikr-mulohazalar tez-tez uchrab turadi. Demak, eng asosiysi,

shoira shu yoʻnalishda “nimalardir” qilayotgan ekan, shak-shubhasiz, aks-sadosiz qolayotgani yoʻq.

Guliston Matyoqubova ijodida doston janri alohida órinni egallaydi. Shoiraning keyingi yillarda yaratgan “Daryoga botayotgan quyosh”, “Ziyoga botayotgan daryo”, “Zulfiya”, “Qóbizdagi qóshiqlar”, “Oybaldoq”, “Ota”, “Quyosh qizi”, “Kóngillar sultoni” kabi dostonlarida shoira qalbining sirli dunyolari, dardli kóngil mavjlari ufurib turadi. Bu dostonlar ózbek va qoraqalpoq sheʼriyatida mustaqillik yillarida qólga kiritilgan eng katta muvaffaqiyatlardan biri sifatida baholangani maʼlum. Namlari tilga olingan dostonlar haqida qoraqalpoq, ózbek va turkman shoir-yozuvchilari, adabiyotshunos va tanqidchilari Ibroyim Yusupov, Omon Matchon, Baxtiyor Nazarov, Tólepbergan Qayipbergenov Norboy Xudoyberganov, Qobil Maqsetov, Karimboy Quramboev va turkman shoiri, adabiyotshunos olimi Axmed Mammedovlar salmoqli va ibratli fikrlari bilan adabiyot sarlavhalarida namoyon bóldilar.

Ishimizda shoiraning kópchilik tarafidan iliq kutib olingan, sevib óqilayotgan ayrim dostonlari haqida tóxtab ótishni maʼqul kórdik. Oʻquvchini óziga xos mójizalar dunyosiga boshlab kiruvchi dostonlaridan “Daryoga botayotgan quyosh” va “Ziyoga botayotgan daryo”dir.

Daryoda mavj urgan

Tóqlinmi, sehr!

Vujudim yondirgan

Quyoshmi, mehr!

Tóqlinlar qaytarar

Wtgan umrimni,

Mehr-jodu bólib

Sehrlar meni.

Nazarimizda, shoira mazkur dostonlari orqali óquvchini iztiroblar olamiga boshlaganday góyo.

*Ikkisi yonida sizni kóraman,
Ikkisi ham Sizning timsolingizdir.
Men endi bilaman, Barin bilaman,
Daryo – bu umrimiz,
Daryo – bu taqdir!
Daryo bu ótmishning charxpalagidir.
Uzoq yaqin kunlarning daragidir...¹*

Darhaqiqat, har ikkala dostonning ilk boblaridayoq shoira DWSTga intiladi, gaplashadi, “aziz dóst”ga yuragini ochishdan, qalbida yashiringan turli ranglar va jilolardan hayratlanadi, “ziyo” va “daryo” timsoliga aylangan haqiqatni – umid va ishonch, mehr va muhabbat tuygulari orqali e`tirof etadi. “Aziz dóstim mening! Siz mening qalbimning muqaddas mulki”, – deydi shoira. (58-bet)

Bu ikkala dostonning mavzusi, yozilish usuli, kompozicion tuzilishi bir-biriga juda yaqin va óxshash. “Daryoga botayotgan quyosh” dostonining ilk misralari shunday boshlanadi:

*Dóstim, aziz dóstim mening,
Kórganmisiz daryoga botayotgan quyoshni!
Kórganmisiz
Ziyoga botayotgan daryoni!
Men bugun bu kórkam
Ikki olamdan
Uqdim bir ma`no –
Yurakda ham quyosh, ham daryo. (37.55-bet)*

Yoki: (“Ziyoga botayotgan daryo” dostonida esa:)

*...She`rlarim,
Siz bilan yashasin shu dóst,
Bizni mangulikning
Yoru`g, shafaqli
Saodat yóliga boshlasin*

Shu dóst!

... *She`rlarim,*

Bir Dóst berdim Sizga

Kónglimdan olib...²

Mazkur jummalarni óqigan óquvchi ózini beixtiyor “men” yoki “siz” yoxud ózini uchinchi odamday his qiladi. Guliston Matyoqubova qalami yaratgan she`riyat olamida yashayotganday his qiladi ózini. Bularning barchasi Guliston Matyoqubovanning óziga xos takrorlanmas, ta`sirchan adabiy-badiiy poetik olam yaratishga intilishidan, shu bilan birga ushbu olam sóz san`atida talqin rang-barangligini ma`no va shakliy jihatdan boyitish yólida ijodiy faollik kórsatayotganidan darak beradi. Shoiranglangan inson “aziz dóst”da, dóst orqali olamni, dunyoni anglashda, hayotning quvonch-tashvishlari, baxtu iztiroblarida, tiriklikning tórt unsuri bólmish – tabiat, quyosh, olov va suvda. Shu bois ham Guliston Matyoqubova ruhi tabiat qóyniga chuqurroq kirib boradi: shamol, bulut, suv, yomg`ir, tuprogu novdalar bilan uzundan-uzoq suhbatlashadi, dardlashadi. Umrning hayotbaxsh buloqlari “Ziyoga botayotgan daryo”, hamda “Daryoga botayotgan quyosh” boqiy muhabbat timsolida namoyon bólibgina qolmay, she`rga, tabiatga, hayotga mehr-muhabbat, sevgini ifodalashni bildiradi. *Dostonlarda daryo – ótmish, kelajak, mehr, muhabbat – ishq, hayot ramzi sifatida tasvirlanadi.* Ikkala dostonidagi “dóst” timsoli esa “ziyo” bólib, faqat ezgulikni ham tinglovchi, ham kuylovchi sifatida gavdalanadi.

... Yana daryo,

Sizni óylasam,

Dil qómsaydi Amudaryoni

Kónglim uchun izlamang meni,

Men yóqotmay Sizday ziyoni. (37.137-bet)

Kuzatishimizcha, *Guliston Matyoqubovanning ikkala dostonidagi chuqur tafakkur, sharqona falsafa, samimiylik, qalb iztiroblari, alam dardlari, ótmish*

merosimizga cheksiz ehtirom va faxrlanish tuygusi, kelajakka ishonch, ona yurtga muhabbat, sadoqat kabi fazilatlar óquvchini befarq qoldirmaydi.

Guliston Matyoqubova ikkala dostonida ham ótmishdagi ma`naviy qadriyatlarimizning voqelik tomirlarini bugungi hayotimizda uygunlashtirib tasvirlar ekan, uni hozirgi istiqlol davri milliy goyalari, manfaatlari bilan “su`goradi”, insonning ma`naviy boyishiga “xizmat” ettiradi.

Tariximizdagi diniy meros – Imom Buxoriy, Sulaymon Boqir`oniy, S`ofi Ollayor, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Pahlavon Mahmud, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur merosi tasavvufiy qadriyatlarning tiklanishi, bir necha ming yillik tarixi hamda madaniy merosning yuzaga chiqishi Guliston Matyoqubovaning ayniqsa “Daryoga botayotgan quyosh”, “Ziyoga botayotgan daryo” dostonlarining ustuvor yonalishini belgilaydi. Bu zahmatkash dini islom ulamolarining óz zamoni haqida “nolalari”ni, “aytganlari”ni muallif zamondoshlarimizning ma`naviy dunyosiga, tafakkuriga muhrlaydi, g`oyo.

*Bu sirlar ne aytar birga tinglaylik,
D`ostim, birpas q`oying tashvishlaringiz,
Menga yordam bering, birga anglaylik
Ajdodlarning munqli nolishlarini... (132-133-betlar)*

Lirik qahramonning quvonch va tashvishlarini zamonga xos fonda poetik talqin qiladi. Shoira “Daryoga botayotgan quyosh” dostonining 30-bobida Sulaymon Boqir`oniyning nidosini uning óz tilidan quyidagicha “s`ozlatadi”:

*...Daryolarda ming sir yashar,
Ziyolardan tu`gar bashar,
Suv goh qaytar,
Goho toshar.
Oqib, oqib k`ordim mano...*

Va,

...Ham Hakim, ham Boqir`onman,

*Turki Turon, mangu ból, deb
Goh isyonman, goh bóronman
Hikmatlarin kitob qilib.*

Ketgan Turkiy Sulaymonman... (131-132-betlar).

Dostonning markazida turgan muallifning lirik qahramoni madaniy hayotimizni, tasavvufiy qadriyatlarimizning tiklanishini, bir necha ming yillik tarixiy hamda milliy merosimizning yuzaga chiqishini e`tirof etadi. Imon e`tiqodi butun, sir emas ma`naviyatimizni yóq qilishga urinuvchilarga, endi, zamon zóravonniki kabi nopok goyalarni targ`ib etuvchi kimsalarga, yomon illatlardan saqlanishga da`vat etadi. Umuminsoniy fazilatlarni har qanday sharoitda ham yóqotmaslikka, unutmaslikka undaydi. Yuksak ma`naviyatimiz, qadriyatlarimizning sarchashmalaridan biri Amir Temur haqida (“Daryoga botayotgan quyosh” dostonida):

*...Goh tinadi, goho toshadi daryo,
Biz eslagan tarix varaqlariday.
Sohibqiron Temur qoldirgan ziyo
Yonar kónglimizning chiroqlarida*

Va:

*Temur bólgunicha Temur bobomiz
Necha bor qonagan bu zamin kóksi...(37. 110-bet).*

Dostonning 33-bobida shunday jumlalar bor:

*Bilaman, bu umr gulxani,
Hól-quruqni yondirar birga.
Lekin yaxshi-yomon kunlardan
Yaxshiliklar qolar umrga...(37.138-bet)*

Qarama – qarshi tuygular kurashi, yaxshilikka da`vat dostonida juda tabiiy va ishonarli talqin qilingan. Kórinib turibdi-ki, dostondagi yagona mavzu – yaxshilikka, ma`rifatga etaklovchi, ma`naviyatimizni boyitib, takomillashtirib boruvchi ilohiy nur. Bu degani - iymon, e`tiqod nuri. Shuning uchun bólsa

kerak, óquvchi lirik qahramon qalbidagi tuygularning yuksak badiiyatiga befarq emas. Doston syujeti milliy tafakkurimizning ózligini saqlashga, uni umuminsoniy miqyoslarga olib chiqishga, inson óz-ózin ma`nan va fikran kamol toptirishga, qolaversa yovuzlikka qarshi kurashishga undaydi.

Demak, yuqorida aytilgan poetik tajribalarni órganish, tahlil etish va nazariy umumlashtirish “Daryoga botayotgan quyosh ” va “Ziyoga botayotgan daryo” dostonlari milliy qadriyatlarimizdagi buyuklikni, ota-bobolarimiz haqidagi chin haqiqatni, ularning ibratli sózlari va dunyoqarashini, insonparvarlik fazilatlarini mustaqillik davri óquvchilariga etkazish muhim vazifalarimizdan biridir.

G.Matyoqubova dostonlari ichida kólami unchalik katta bólmagan 22 qismdan iborat “Zulfiya” nomli asari ham bor. Bu doston Nurmuhammad Andalib va Usmon Azim satrlaridan iborat epigraf bilan boshlanadi. Dostonda hayotdan erta kóz yumgan, orzu-armonlari erta sóngan yoshgina ayol Zulfiyaning achinarli taqdiri haqida sóz boradi. Dostonning kirish qismidan boshlab, oxirigacha óquvchini ruhiy iztirob, dard, alam qiynaydi. Ayanchli taqdirning qurboni bólgan Zulfiyaning ólimidan keyin lirik qahramonda paydo bólgan ruhiy chókish, nola óquvchi qalbini timdalaydi, larzaga soladi. Bir-biridan shirin, bir-biridan suluv «farzandlaridan kechib» bu yoruú olamdan erta kóz yumgan yosh ayol taqdiriga achinasiz. Etim qolgan norasidalarining:

...Jovdiraydi qora kózlar.

Ezar,

Ezar,

Baáring ezar,

“Opam qayga ketdi” deb...³ – qilgan nolalaridan qalbingiz ozor chekadi, onasining diydoriga tóyolmay qolgan gódaqlarning iqboliga sherik bólganingizni sezmay qolasiz. Jumlada lirik qahramonning óz fikri bilan tuúgilgan kechinmaning fojeiy rangini kórsatish ustivor. Muallif sizni lirik

qahramonning “dard”lariga, orzu-armonlariga “boʻgʻlab” qoʻyadi: u qiynalsa qiynalasiz, quvonsa siz ham quvonasiz.

Biroq dostondagi ijodiy individuallikning oʻziga xosligi shundaki, bunday hodisalar, qaygʻuli tasvirlar sizning ruhingizni tushirmaydi, umidsizlikka undamaydi. Xususan, inson irodasining oniy holatini suratlantiradi, sizni chiniqtiradi, ishonchingizni mustahkamlaydi. Zero, hayotda har qanday ogʻir va qiyin toʻsiqlarga dosh berishga sabr-matонатli boʻlishga undaydi.

Eʼtibor bersak, shoiraning satrlarida yaxlit mujassamlashtiruvchi, odamlar qalbini sehrlab, tortib turadigan bir kuch bor. Negaki, shoiraning bunday qaygʻuli hayot koʻrinishlarini badiiy ifoda qilishi, yaratuvchanligi, ogʻir ruhiy holatlarini real va haqiqiy, aynan tabiiy koʻrinishda badiiy bayon qilishiga tan berasiz.

Barcha ijodkorlar ham lirik qahramonning ichki tuygʻulari poetik talqinini ifoda qilishda, ulardan falsafiy umumlashmalar chiqarishda, oʻquvchini qahramonning ichki dunyosiga olib kirib, taqdiriga “hamdard” boʻlishga muyassar boʻlavermaydi. Bu oʻrinda G.Matyoqubovaning lirik qahramon ruhiyatini, uning ichki kechinmalarini ochib berishi keng imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolatdir. Albatta, bu aytilgan fikrlardan doston juda tushkunlik ruhida yozilgan, lirik qahramonning dard-hasratlari, judolik bilan boʻgʻliq intim tuygʻulari – ichki toʻlqinlar rangini chizishdan iborat ekan, degan maʼno kelib chiqmasligi lozim. Dostonda umidsizlik uygotadigan hech qanday mungli nola yoʻq. Lirik qahramon mehr-muhabbatga hamisha tashna. Va lekin, lirik qahramonning bezillagan koʻngli zada. Qalbida olamgir tuygʻular toʻfoni. Yolgʻiz qalbning ilinji hayotda umid va ishonch bilan yashashni istaydi. Shuning uchun u:

...Umid etgin oppoq baxtni,

Baxtlar uzra quvonch zavqni... (37. 253-bet).

– deb koʻngil daftarini ochadi. Zulfiyadan qolgan “*armon taxtini choʻktirmaslikka*”, taqdirning bu “xatosi” hech qachon takrorlanmasligiga, “*Ayriliq yoʻllarini baxt bilan kesib qolishga*” vaʼda etadi. Bundan keyin orzu-

umidlarga *“Qaygʻuni yoldosh etmaslikka, hasratlarga kómilib qolmaslikka”* va`da beradi.

Dostonda ana shunday ma`naviy-axloqiy, ijtimoiy mavzularni badiiy idrok va ifoda qilishda falsafiy mushohadakorlik borliqqa umid, fojeiy haqqóylik balqib turadi.

Bular esa, óz navbatida *G.Matyoqubova poeziyasining janr tarkibi boyib, umumlashma fikrlar, xalqona ohang, kóngil bitiklari, hayotiy ma`nodorlik usluban kengayib borayotganligini kórsatadi.* “Zulfiya” dostoni kóngillarga chókib qolgan armonli, ókinchli tuygʻularga juda boy asar. “Zulfiya”ning janr xususiyatlari, voqelik ranglari, óziga xos badiiy idrok va ifoda tólganishlarining tasviri jihatidan marsiyaga óxshab ketadi. G.Matyoqubova dostonlariga xos xususiyatlar mavzusi, órganilishi, tahlil qilinishi ulkan tadqiqotlarni talab qiladi. G.Matyoqubovaning shu kabi dostonlari haqida ibratli fikrlarni aytish mumkin. Shoir dostonlarida ham ijtimoiy, ma`naviy-axloqiy, milliy va tarixiy qadriyatlarimizga boy merosimiz, ijodkor shaxsi-yu muhabbat iztiroblariga badiiy javob izlashi kóngil deb atalgan bekaron mamlakatda kechayotgan sir-sinoatlarni tadqiq etishga qaratilgan say-harakatlari bilan e`tiborli.

III BOB. TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARDA MAVZUNING BERILISHI

3.1. Mavzuni ta'lim jarayonida amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha tavsiyalar

Yurtimizda mustaqillikdan keyin ta'lim tizimiga alohida e'tibor berilmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga asosan o'rta umumta'lim tizimida o'qitiladigan fanlardan davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari ishlab chiqildi va hukumat tomonidan, xususan, "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-qarori va qarorning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti" tasdiqlandi. Mamlakatimizda ta'limning huquqiy asoslari, istiqbollari qonun bilan, uning mazmun va sifati standartlar bilan, tashkiliy –amaliy jihatlari o'quv dasturlari bilan belgilangan, o'quv-metodik tadbirlar darslik va qo'llanmalarda tavsiya etilgan.

Adabiyotshunoslik ilmida ro'y berayotgan yangilanishlarni adabiyot o'qitish jarayoniga tatbiq etish o'tgan asr 90-yillarining birinchi yarmidan boshlab yaratilayotgan dastur, darslik va qo'llanmalarda aks etib, bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Istiqbol davri adabiyoti tub sifat o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Yozuvchilar olam, odam haqida avvalgidan o'zgacharoq fikrlash mumkinligini angladilar va o'zlari ham shunga ko'nika boshladilar. Mustaqillik davri ijodkorlaridan biri bo'lgan Guliston Matyoqubova ham o'zining o'zgacha ijodi bilan ajralib turadigan ijod sohibasi hisoblanadi.

Talantli o'zbek shoirasi G.Matyoqubovaning ijodidan, ayniqsa uning lirikasidan o'rin olgan Vatan ya'ni kindik qonimiz to'kilgan ona zamin serquyosh O'zbekistonimiz, qadimiy shahar To'rtko'l, har bir millatning qanotidan biri bo'lmish ona tabiat, uning go'zalliklari haqidagi fikrlar zarrada

quyosh aks etgani kabi uning she'riyatining har bir misrasida o'z in'ikosini topgan.

Shoira Guliston Matyoqubova ijodini o'rganish maktab va akademik litsey, kasb-hunar kollejlari darsliklarida berilmagan . Shoira ijodini maktab darsliklarida she'riyatimizning go'zal vakilasi bo'lgan Zulfiya izdoshi sifatida 6-sinf III-chorakida “Rangin tuyg'ular” deb nomlanuvchi bobida Zulfiya ijodidan so'ng, sinfdan tashqari (mustaqil o`qish uchun) o'qilgan asarlar muhokamasi uchun ajratilgan bir soatda va 8-sinf III-chorak she'rxonlik musobaqasi , 10-sinf adabiyot darsligida choraklarda mustaqil o'qilgan asarlar muhokamasi sifatida 11-sinf darsligining III-chorak 5-bobida “Mustaqillik davri adabiyoti” bo'yicha darslikka yangi mavzu sifatida o'rganishimiz mumkin. Maktabda shoira ijodini to'garak mashg'ulotlarida o'rgatishni tavsiya qilamiz.

M.M.I.B.D.O': _____

TASDIQLAYMAN:

**_____ -umumiy o'rta ta'lim
maktabi direktori:**

***Buxoro viloyati Peshko' tumani PTMTTEB tasarrufidagi
10-umumiy o'rta ta'lim maktabi Ona tili
va adabiyoti fani o'qituvchisi G'aybullayeva Parvinaning
“ADABIYOT SHAYDOLARI”
to'garak rejasi***

| Mavzular | Soat | O'tiladigan sana | Izoh |
|-------------------------------|-------------|-------------------------|-------------|
| Adabiyot so'z san'ati | 1 | | |
| Xalq og'zaki ijodi | 1 | | |
| Hamid Olimjon “Oygul bilan | 1 | | |

| | | | |
|---|---|--|--|
| Baxtiyor” | | | |
| Alisher Navoiy - g’azal mulkining sultoni | 1 | | |
| Zahiriddin Muhammad Bobur | 1 | | |
| Pirimqul Qodirov | 1 | | |
| Zulfiya. Rangin tuyg’ular | 1 | | |
| Guliston Matyoqubova | 1 | | |
| Muhammad Yusuf she’riyati xalqchilligi | 1 | | |
| Abdulla Oripov Asarlari talqini | 1 | | |
| Modern adabiyoti she’riyati | 1 | | |
| Rauf Parfi she’riyati tilsimi | 1 | | |
| Ulug’bek Hamdam ijodi | 1 | | |
| Adabiyot olamida Go’zalbegim she’rlari | 1 | | |

3.2. DARS ISHLANMA

MAVZU: Guliston Matyoqubova she'riyati

Dars maqsadi :

- a) *Ta'limiy maqsad* : O'quvchilarga Guliston Matyoqubova hayoti va ijod yo'li bilan tanishtirish , yangi ma'lumotlar berish
- b) *Tarbiyaviy maqsad* : Guliston Matyoqubova adabiyotimiz uchun qilgan xizmatlarini ta'kidlagan holda o'quvchilarga milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish , ularni kitobga bo'lgan e'tibori va qiziqishini kuchaytirish
- c) *Rivojlantiruvchi maqsad* : Shoira ijodi orqali o'quvchilar dunyoqarashini rivojlantirish

Dars jihozi : *ko'rgazmali qurollar , rangli plakatlar , baholash kartochkalari , she'riy to'plamlar, texnik vositalar(kompyuter , mp3player, video proektor) darslik va boshqalar.*

Dars turi : *yangi bilim beruvchi*

Darsda foydalaniladigan usullar : *“Aqliy hujum” , “BBB” metodlari, suhbat, bahs –munozara*

Dars shiori : *ADABIYOT YASHASA , MILLAT YASHAR*

(Cho'lpon)

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism .

O'quvchilar bilan salomlashilib , davomat aniqlanadi , sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi ko'zdan kechiriladi.

II.O'tilgan mavzuni so'rash .

O'tilgan mavzuni so'rash uchun “Aqliy hujum” metodi orqali so'raladi , o'quvchilar baholanadi.

III.Yangi mavzu bayoni. “BBB” metodi asosida .

Dastlab o'quvchilardan Guliston Matyoqubova hayoti va ijodi to'g'risidagi bilgan ma'lumotlar so'raladi , keyin qanday ma'lumotlarni bilishni xohlashlarini va dars oxirida qanday ma'lumotlarni bilib olganliklari so'raladi.

Darsning qisqacha mazmuni : Guliston Matyoqubova iste'dodli shoira hamda yozuvchi. Shoira 1948-yil Qoraqalpog'istonning To'rtko'l shahrida tug'ilgan.

Har kimning o'z uyi o'lan to'shagi,

Bu yurtni jannatdan a'lo deb bildim,

Onam tug'ar bo'lsa qaytadan,

Yana To'rtko'limda tug'ilar edim.

Shoira TOSHDUning jurnalistika fakultetini tugatgan . Bo'lajak shoira dastlab tuman gazetasida ishlaydi, radio eshittirish qo'mitalarida xizmat qiladi, 1981-yildan To'rtko'l tumani gazetasining mas'ul kotibi , so'ngra bosh muharrir lavozimlarida faoliyat olib boradi. U1985-yildan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Qo'mita boshlig'i , Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'I Kengesi deputati , O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati bo'ldi. Ayni paytda Qoraqalpog'iston Respublikasi Berdaq nomidagi Davlat mukofiti lauret I (1993) , O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi , Qoraqalpog'iston xalq shoirasi (2002), 2017-yilda "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

Shoira she'riyati xususida Omon Matjon:

"Gulistonning she'rimizdagi ovozi nodir hodisadir. Guliston qalamida alohida manzurlik , ishonarli samimiyat , ogohlilik undovlari aks etadi"

G.Matyoqubova she'riyatida *xalq dardi , olam, odam , hayot haqiqati , ona , do'st, tuproq, tog' , yomg'ir, shamol , qor, tuman , bulut , ohu, quyosh, oy, qish, bahor, yoz , kuz* kabi serma'no va serqatlam poetik obrazlar tizimi voqelikni poetik baholashda ochqichdir.

Odam ongli bir gul , dunyo keng chorbog'

Hoy-u havaslarni tuta bilmaslar

Inson boshi bir tosh, dunyo baland tog'

Har qadam ming gunoh o'ta bilmaslar

(Shoira she'riyatidan namuna sifatida mp3 tarzida o'quvchilarga eshittiriladi.)

Shoira ijodiga mansub asarlar:

| She'riy asarlari | Dostonlari |
|------------------------------------|------------------------------------|
| <i>"Hayajonning yeti rangi"</i> | <i>"Daryoga botayotgan quyosh"</i> |
| <i>"Oydin ostona"</i> | <i>"Ziyoga botayotgan daryo"</i> |
| <i>"Sevib qolsin"</i> | <i>"Zulfiya"</i> |
| <i>"Baxtli kelgan bahor"</i> | <i>"Qo'bizdagi qo'shiqlar"</i> |
| <i>"Nurli kunlar"</i> | <i>"Oybaldoq"</i> |
| <i>"Men sen uchun yashayapman"</i> | <i>"Ota"</i> |
| <i>"Ota makon madhi"</i> | <i>"Quyosh qizi"</i> |
| <i>"Ota uyim"</i> | <i>"Ko'ngillar sultoni"</i> |

(Shoira nutqi video proyektorda ko'rsatiladi.)

Yangi mavzuni mustahkamlash.

Yangi mavzu "BBB" metodi orqali mustahkamlanadi. O'quvchilarga "BBB" tarqatmasi beriladi.

| <i>Bilar edim :</i> | <i>Bilib oldim:</i> | <i>Bilmoqchiman:</i> |
|----------------------------|----------------------------|-----------------------------|
| a) | | |
| b) | | |
| s) | | |

| | | |
|--|--|--|
| | | |
|--|--|--|

O'quvchilar qiziqqan savollarga o'qituvchi javob berib , shoira ijodi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar beriladi. O'quvchilar bilan shoira ijodi bo'yicha suhbat va savol-javoblar olib boriladi.

O'quvchilarni baholash.

Darsda faol qatnashib o'z fikrini erkin bayon eta olgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari orqali baholanadi.

Uyga vazifa:

O'quvchilarga shoira hayoti va ijodini bilan yaxshilab tanishib, she'rlaridan yod olish vazifa qilib beriladi.

UMUMIY XULOSALAR

XXI asr yangi davr o'zbek she'riyati yaxlit tizim, bir butun adabiy-estetik hodisa sifatida tarix zarvaraqlariga muhrlandi. Yuz yillik taraqqiyotida lirik ifoda ko'lami, tasvir ruhiyati o'ziga xosligi hamda poetik idrok mantig'i teranligi shoira alohidaligini belgilovchi adabiy mezonga aylanayozdi. Milliy tabdil o'lchami va umuminsoniy qadriyat jipslashuviga erishish, shaxs botiniy dunyosini tahlillashga intilish hamda timsoliy tafakkur – ramzlar tili – majoziy talqin tig'izligini tayin etadigan ijod falsafasi iste'dod daraja ko'rsatkichini tavsiflaydi. Aslida haqiqiy ma'noda, mahorat individuallik bilan ijtimoiylik, aql bilan tuyg'u uyg'unlashuvini taqozolaydi. Shu o'rinda ta'kidlash joiz, har bir she'riy tasavvur ortida ijodkor fitrati – xos ma'naviy olam, did-saviya va dunyoqarash o'zgaruvlari bo'y ko'rsatadi. Unda pozitiv munosabat joriyligi mantiqiy taraqqiyot me'yorlarini markazlashtiradi.

San'atkor mushohada yo'sini poetik so'z zalvorini ijtimoiy-ma'naviy muhit manzarasiga yo'naltiradi, inson adabiy zavqi va ruhiyat mintaqalarini ko'rsatadigan normativ holatni dalolatlaydi. Alohida talqin badiiy qiymati hamda ta'sir quvvati baholash sifatini sharhlaydi. Ayni chog'da, ifoda ijodkor ma'naviy-ruhiy olamini namoyish qiladigan mezonga evriladi. Shunday ekan, badiiy mantiq hayotiy hodisa qayta ishlangan, to'ldirilgan hamda boyitilgan namunasini ilgari suradi. Unda ta'rif va tavsif bir-biriga tenglashadi, unda estetik idrok va iste'dod darajasi yaxlitlashadi, unda tahlil va tasvir tezkor o'rin almashinuvlari barqarorlashadi, unda milliy ohang va umuminsoniy aqida uyg'unlashadi, unda tuyg'u va ong ziddiyati hosil bo'ladi.

Muayyan ijodiy konsepsiyaga ega bo'lgan shoirgina badiiy tizimda munosib e'tirof qozona oladi. Falsafiy nuqtai nazar jamlanmasi, o'z navbatida, adabiy-estetik a'molda to'laqonli namoyon bo'ladi. Chinakam iqtidor she'riyatga o'ziga xos talablar asosida yondashadi. Ijod va shaxsiyat

mutanosibligi poetik mantiq tabiatini alohidalaydigan mezon sanaladi. Yuksak idealdan og‘ishmaslik uning birlamchi shartidir.

Inson ruhiyati va millat mohiyatini ifodalashga intilayotgan Guliston Matyoqubova poetik idrokida Zulfiya, Xalima Xudouberdiyeva, A.Oripov ba‘zan Maxtumquli ijodiga hamohang adabiy talqin kuzatiladi. Tasavvur g‘aroyib qudrati va tasvir jo‘shqin shijoatini omuxtalashtira olgan shoira badiiy izlanishlarida haqiqatga talpinish, yolg‘ondan zada ko‘ngil iztiroblari jilvalanadi. Turfa fasl, hayot va xayol hosilasi his-tuyg‘ularni teranroq ifodalash uchun vosita, milliylik, tarixiylik unda kundalik tafsilotlar falsafasi qamrovini kengaytirishga moyillik yetakchi estetik tamoyil darajasiga ko‘tariladi.

Milliy istiqlol davri o‘zbek she‘riyati solnomasida munosib o‘rin egallab borayotgan Guliston Matyoqubova lirikasi muttasil estetik idealni yangilashga urinishi bilan originallik kasb etadi. Unda tuyg‘u qalbdan san‘at tiliga ko‘chadi, tasvirda uyushgan sezim shukuhi kuchli po‘rtanalar uyg‘otadi. Mushohada yig‘iqligi va falsafiy mushohada quyuqligi, oddiylik, milliylik shoira nazmi o‘ziga xosligini belgilaydi.

Muallif badiiy tafakkurida kechadigan estetik voqelik ma‘naviy-ruhiy olam butunligiga daxldor. Inson dunyoqarashidan oziqlanadigan mavjud jarayon muntazam fikr yuksalishini taqozolaydi. Ruhiy holat ijtimoiy ildizlarini yoritishga yo‘naltirilgan sohir she‘riy tanlovda ajib bir tarovat qabarib ko‘rinadi. Ruh ma‘naviy daxlsizligini ijtimoiylashtirgan shoira adabiy talqinida inson iroda yo‘nalishiga ishonch hissi ustuvor. Unda badiyat, dard hamda nafosat umumlashmasi yorqin ifodasini topadi.

“Bashar fojiasini, millat fojiasini o‘z fojiasi bilib o‘rtangan shoira haqiqiy she‘r baxtiga muyassar bo‘ladi. She‘r yozish o‘lim bilan yuzma-yuz turib gaplashgan bilan barobar”, - deb yozadi Sh.Rahmon. Darhaqiqat, asl shoir a‘moli inson va millat manfaatiga tutash.

Guliston Matyoqubova poeziyasida sobit e‘tiqod hamda qat‘iyat zichligi kuzatiladi. Shaxs va ijodkor sifatida shoira inson ehtiyojlarini kuylashda aniq

axloqiy pozitsiyada turadi. *“Dóstim mening, bilmoq bólsang. Men shu boy hayotning gárib bir joni. Xotirjam dunyoning, tinib-tinchimagan, Bezovta, notinch. Ózin ótga-suvga, urib yashovchi, Bir hayajoni...”*deya e’tirof etadi muallif. Shoira badiiy atmosferasi ob-havosini belgilaydigan omil ma’naviy mezonga payvandlanadi. Go‘zal va latif tuyg‘ularini to‘kib solayotgan qalb hamisha ro‘yirostlikka sodiq qoladi. Samimiyat zalvoridan hosil bo‘ladigan tug‘yon o‘ziga xoslik kasb etadi. Aslida haqiqiy she’r idrok sezgisi zamzamasidan o‘sib chiqadi. Unda shuur tahlil quvvat-hofizasini oshiradi, unda ifoda va tasvir ziddiyati mantiqni dalolatlaydi, unda hissiy qamrov kengligi tasavvurni teran mohiyatga yo‘naltiradi, unda qadriyaviy mezon tanlovi ong va voqelikaro tasvir ruhiyatini shakllantiradi, unda inson ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy-falsafiy mohiyati birlashadi, unda poetik mantiq izchilligi hodisotni tabdil etish, ruhiy tahlilni teranlashtirish hamda shaklni ijodiy jihatdan moddiylashtirish vazifasini bajaradi.

Umuman, Guliston Matyoqubova lirikasi ilg‘or badiiy an‘analarni malakaviy jihatdan yuksaltirishga intilishi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Istiqlol davri adabiy avlodiga mansub shoira ijodida she’riy mavzu ko‘lami keng va rang-barang. Ruhiy kechim irmoqlaridan sizib chiqadigan nozik sezim hayotiy manzaralar ziidiyatini falsafiy teranlashtirish, holat suvrati hamda siyratini uyushtirish hamda tushuncha hissiy tovlanishlarini umumlashtirish vazifasini bajaradi. Nafis kuzatish va jonli mushohadani qorishtirib yuboradigan adabiy talqinda ifoda qabariqligi lirizm quyuvlashuviga zamin hozirlaydi. Aksar holatlarda muallif zamonga daxldor, kundalik mafkuraviy-maishiy turmush bilan bog‘liq, nisbatan mayda va o‘tkinchi mavzudan saqlanadi. Abadiyat, umuminsoniy qadriyatlar hamda shaxs idrok sezgisini tahlillashga moyillik uning tabiatini tayin etadi. Rang, ohang va musiqa tig‘izlashuvini aniq ilg‘ash hamda ko‘rsatish joriy ijod muvaffaqiyatini ta‘minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. IJTIMOIIY-SIYOSIIY ADABIYOTLAR:

1. Sh.M. Mirziyoyev. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Toshkent: O'zbekiston, 2017. -104.b.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T.: O'zbekiston, 2009.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni", 1992. Barkamol avlod orzusi. Toshkent, "Sharq" nashriyot matbaa kontserni, 1999. 130- bet.
4. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", 1997-yil, 29- avgust. Barkamol avlod orzusi. Toshkent, "Sharq" nashriyot-matbaa kontserni, 1999-y.

II. NAZARIY ADABIYOTLAR:

5. Adabiyot. Badiiyat. Abadiyot. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
6. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. 2-jild. –T.: Fan, 1979.
7. Abdullayev O. She'riyatning tiniq osmoni. – T.: Adabiyot va sa'nat, 1979.
8. Aliyev A. Istiqlol va adabiy meros. –T.: O'zbekiston, 1997.
9. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – T.: Yangi asr avlodi, 2005.
10. Mirqosimova M., Rustamova M. Janr va mahorat. – T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2007.
11. Mustaqillik davri adabiyoti. –T.: Adabiyot va san'at, 2006.
12. Nazarov B. Bu sehrli dunyo. – T.: Adabiyot va san'at, 1980.
13. Normatov U. Ijod sehri. – T.: Sharq, 2007.
14. Umurov H. Tahlil san'ati. –T.: Adabiyot va san'at, 1978.
15. K.Quramboyev, G.Quramboyeva. Gul bor Guliston ichinda –T.: O'zbekiston, 2016.
16. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T.: 2004.
17. Sodiqov S. Ijodning o'ttiz lahzasi. –T.: Sharq, 2005.
18. To'rayev D. Davr va ijod ma'suliyati. –T.: Yangi asr avlodi. 2004.
19. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. –T.: Sharq, 2004.
20. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. –T.: Akademnashr, 2013.
21. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. –T.: Fan, 2007.

III. BADIY ADABIYOTLAR:

22. G.Matyobova. Sevib qolsin. Toshkent, G.Gulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991-yil.
23. G.Matyobova. Aytgin menga Tórtkól haqida. Nukus, "Qaraqalpaqstan", 2016-yil.
24. G.Matyobova. Oyboldoq. Toshkent, "Yozuvchi" nashriyoti. 2001-yil.
25. G.Matyobova. Qaytmoq uchun ketmoqdaman. Nukus, "Qaraqalpaqstan", 2007-yil.
26. G.Matyobova. Ota uyim. Nukus, "Qaraqalpaqstan", 2016-yil.

IV. ILMIY MAQOLALAR:

27. Zulfiya. Gulistonning bóstoni. “Qaytmoq uchun ketmoqdaman” – Nukus: “Qaraqalpaqstan”, 2007. –B. 232.
28. Omon Matjon. Saodatlik iste’dodga ehtirom. “Qaytmoq uchun ketmoqdaman” – Nukus: “Qaraqalpaqstan”, 2007. –B. 240.
29. Nazarov B. Guliston haqida so’z. “Qaytmoq uchun ketmoqdaman” – Nukus: “Qaraqalpaqstan”, 2007. –B. 245.
30. Norboy Xudoyberganov. Ko’ngil quyoshi va dardlari. “Qaytmoq uchun ketmoqdaman” – Nukus: “Qaraqalpaqstan”, 2007. –B. 248.
31. Qobil Maqsetov. Ulug’ jirov haqida poema. “Qaytmoq uchun ketmoqdaman” – Nukus: “Qaraqalpaqstan”, 2007. –B. 250.
32. Ibroyim Yusupov. Ayol yuragining nozik tuyg’ulari. “Qaytmoq uchun ketmoqdaman” – Nukus: “Qaraqalpaqstan”, 2007. –B. 252.
33. Bo’ronov M. She’riyat sayqali – so’z. “Qaytmoq uchun ketmoqdaman” – Nukus: “Qaraqalpaqstan”, 2007. –B. 259.
34. Karimboy Quramboyev. Dovonlardan dovonlarga (Guliston Matyoqubova ijodi haqida). “Qaytmoq uchun ketmoqdaman” – Nukus: “Qaraqalpaqstan”, 2007. –B. 264.
35. Yusuf Berdiyev. Muhabbat yurtiga guldasta. “Qaytmoq uchun ketmoqdaman” – Nukus: “Qaraqalpaqstan”, 2007. –B. 266;
36. Feruza Sapayeva. G.Matyoqubova dostonlarida liro-epik talqin. Ilim hám jámiyet jurnali. 2009.№ 1-2. – B.111-113.,
37. Feruza Sapayeva. “Badiiy iste’dod jilolari”, Ilim hám jámiyet jurnali. 2008. № 1-2.–B.58-60.,
38. Feruza Sapayeva. Publitsistik tasvir, lirik talqin uyğunligi (*G.Matyoqubovaning “Jayhun yoqasida ósgan boyterak” adabiy-badiiy publitsistik asari misolida*) O`zFAKKB Axborotnomasi («Xabarshi») jurnali. 2009. № 1. –B. 92-95.,
39. Feruza Sapayeva. Tabiatni poetik talqin qilishdagi óziga xoslik (*G.Matyoqubovaning ijodiga bir nazar*), Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari. Ilmiy tóplam. Nukus. 2009. –B.47-51.
40. Ahmed Mammedov. Gulistonning she’r chamani. “Qaytmoq uchun ketmoqdaman” – Nukus: “Qaraqalpaqstan”, 2007. –B. 267.
41. Normatov U. Ijodning qo’sh qanoti. –T.: G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. 5-bet.

V. ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI:

<http://www.ozbekadabiyoti.com>

<http://www.wikipedia.org>

<http://www.microsoft.com>

<http://www.twitter.com>

<http://www.gosuslugi.uz>.